

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

"Himoyaga ruxsat etilsin"

Fakultet dekani _____ A.A.Haydarov

"___" _____ 2018-yil.

BITIRUVCHI KURS TALABASI

Ikromova Mo'minaning

"O'zbek dostonchiligida Bobur siymosi talqini"

mavzusidagi

5 120 100 -Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishida
bakalavr akadem darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIV ISHI

Ilmiy rahbar :

Ф.Ф.Д., проф.

Quvvatova Dilrabo

(2017-2018-o`quv yili)

«Ma`qullayman»

«Tasdiqlayman» ____

**Ilmiy rahbar: f.f.doktori,
prof. D.H. Quvvatova**

**O`zbek adabiyoti kafedrasи
mudiri Sh.N.Ahmedova**

« »_____ 2017-y.

« »_____ 2017-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Ikromova Mo'mina Komil qizining
«O`zbek dostonchiligida Bobur siymosi talqini» mavzusidagi bitiruv malakaviy
ishi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishningqisqacha mazmuni	Bajarilish vaqtি	Bajarilganishlarhaqidailmiy rahbarxulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo`yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-badiiy materiallarni to`plash, o`rganish	Sentabr		
	2. Ilmiy	Sentabr		

	adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o`rganish			
	3. Mavzu bo`yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Badiiy adabiyotlar ustida ishlash. To`plangan materiallarni sistemalashtirish	Oktabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasinituzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	Noyabr		
	2. I bob fasllari ustida ishlash	Dekabr		
	3. II bob fasllari ustida ishlash	Yanvar		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko`chirish	Fevral		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	mart aprel		
	6. Adabiyotlar ro`yxatini tartibga			

	solish			
BMI ini rasmiy- lashti rish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	May		
BMIni himoya qilish		Iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi
Ilmiy rahbar

Ikromova Mo'mina
Quvvatova Dilrabo

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

29-avgust, 2017-y.

**Qatnashdil: kafedraning barcha
a`zolari**

K U N T A R T I B I

*Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.*

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Ikromova Mo'minaningbitiruv malakaviy ishi
mavzusi «**O`zbek dostonchiligida Bobur siyoshi talqini**» shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Ikromova Mo'minaning malakaviy bitiruv ishiga
f.f.doktori, professor Quvvatova Dilraboilmay rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilishraisiSh.N. Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

**o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan**

KO`CHIRMA

Buxoro sh.5-may, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha

a`zolari

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Ikromova Mo'minaning «**O'zbek dostonchiligida Bobur siyoshi talqini**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Ikromova Mo'minaning «**O'zbek dostonchiligida Bobur siyoshi talqini**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent H.P. Eshonqulov tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

U.To`rayeva

***Fakultet ilmiy kengashning 2018- yil may
bayonnomasi bilan tasdiqlangan***

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Ikromova Mo'minaning «O`zbek dostonchiligida Bobur siymosi talqini» mavzusidagibitiruvmalakaviy ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilanganme'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo`yicha rasmiylashtirilganligi (me`yor: 45 betdan kam bo`lmasligi kerak)	Talabga javob beradi–10 ball	Talabga qisman javob beradi–7 ball	Talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo`yicha tanlanganligi	Davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo`yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo`yicha–6 ball yoki dolzarb muammolarbo`yicha –5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	Yetarli darajada asoslangan–5b.	Yetarli asoslanmagan–3b.	noaniq -2 ball

4	Maqsad vavazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to`liq aniq emas – 5 ball	Aniq emas – 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to`la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarining yangiligi va ishonchlilikdarajasi	Natija yangi – 8 ball	Ilgari olingan – 6 ball	to`la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo`llashga (ta`lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma`naviy- ma'rifiy...)	Bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo`yicha olingan natjalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to`la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan- 4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	Ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi oliml araslaridan to`lafoydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma`ruza matnlari, o`quv qo`llanma va ma'lumotnomalaridangina foydalanilgan - 4 ball
1	Bitiruvchi	a`lo – 10 ball	yaxshi – 7	qoniqarli – 6 ball

1	taqdimotiga baho		ball	
1 2	Berilgan savollarga javobi	to`liq – 8 ball	o`rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
1 3	BMIni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a`lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
1 4	BMIga qo`yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof.Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots.Eshonqulov H.P (a'zo)

4. dots.Davronova Sh.G`

5.Bozorova M-Buxoro TI litseyi o'qituvchisi

6.Beganjova D.- Buxoro sh. 13-maktab o'qituvchisi

-iyun, 2018-y.

Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Ikromova Mo'minaning «O`zbek dostonchiligida Bobur siy়mosi talqini» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

ANNOTATSIYASI

Zamonaviy o`zbek dostonchiligida mashhur tarixiy shaxslar obrazlarini badiiy gavdalantirish o`zi xos tamoyillarga ega. O`zbek dostonchiligida Alisher Navoiy, Z.Bobur, Mashrab, Mirtemir, Oybek singari adabiyotimizning taniqli vakillari siy়mosi dostonchiligidan yaratilgan. Shular orasida Boburga bag`ishlangan dostonlar alohida tizimni tashkil etadi. A.Mahkamning “Tavajjuh”, I.To`lakovning “So`nggi kecha”, T.Nizomning “Uch so’z”, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Bobur” kabi asarlari fikrimizni tasdiqlaydi. Tadkikotda shu dostonlarga xos xususiyatlarni urganishga intildik.

Tadqiqot uchun Bobur haqida yaratilgan A.Mahkamning «Tavajjuh», I.To`lakovning «So`nggi kecha», S.Sayyidning «Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur», T.Nizomning «Uch so’z» dostonlari tanlandi.

O`zbek dostonchiligida yaratilgan Boburga bag`ishlangan dostonlarni syujet, kompozistiyasi, obrazlar olami, badiiy til xususiyatlarini o`rganish ishning maqsadini tashkil etadi.

Ishda o`zbek dostonchiligida yaratilgan Boburga bag`ishlangan dostonlarning mavzu-mundarijasi tahlil etilgan, kompozitsiyasi va syujetiga xos xususiyatlar o`rganilgan, Bobur siy়mosini yaratishdagi badiiy mahorat va badiiy til xususiyatlari yaxlit tarzda o`rganilgan.

Bitiruv ishida Boburga bag`ishlangan dostonlar yaxlit badiiy tizim sifatida tadqiq etilgan.

Ilmiy rahbar
Talaba

Quvvatova D.H.
Ikromova M.

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Mo`mina Ikromovaning «O`zbek dostonchiligidagi Bobur siymosi talqini» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

Zamonaviy o`zbek dostonchiligidagi tariximizda munosib nom қoldirgan siymolarning badiiy obrazlarini gavdalantirish muhim tamoyilga aylandi. Shoirlarimiz bu orqali mustaqilligimiz ildizlarini teran ochishga erishdilar. Vatanimiz tarixi va taqdirida katta o`rin egallagan betakror shaxslardan biri Zahiriddin Boburdir. Ma'lumki, adabiyotimizda shoh va shoir Bobur haqida roman va qissalar yaratilgan edi. Endilikda unga bag`ishlangan doston janridagi asarlar ham yaxlit tizimni tashkil etadi. A.Mahkamning “Tavajjuh”, I.To`lakovning “So`nggi kecha”, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur”, T.Nizomning “Uch so`z” singari dostonlari bu jihatdan ahamiyatlidir. Bitiruvchi talaba M.Ikromova shu dostonlarni tahlil va talqin qilishga intilgan.

BMI kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

Tadqiqotchi mavzuga oid ilmiy va badiiy manbalarni yaxshigina o`rgangan. Unda badiiy matnni tahlil qilish malakasi shakllangan.

Tadqiqotning birinchi bobi “Boburga bag`ishlangan dostonlarning o`ziga xos xususiyatlari” deb nomlanib, 4 faslni o`z ichiga oladi. A.Mahkamning “Tavajjuh” dostonida lirik tasvir imkoniyatlarining qo`llanilganligi, I.To`lakovning “So`nggi kecha” dostonida dramatik tasvir, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Bobur” dostonida ruhiyat manzaralari va T.Nizomning “Uch so`z” dostonida tarixiy haqiqat va badiiy to`qimadan foydalanish masalalari yoritilgan.

“Boburga bag`ishlangan dostonlar badiiyati” deb nomlangan ikkinchi bobda esa dostonlar tuzilishi va syujetiga xos xususiyatlar, badiiy tili bilan bog`liq jihatlar tadqiq etilgan.

Ishning xulosasida Boburga bag`ishlangan dostonlarga xos xususiyatlar umumlashtirilgan.

Tadqiqotda yuqoridagi fazilatlar bilan birga ba`zi kamchiliklar ham: imloviy, ishoraviy xatolar, bayonchilik ko`zga tashlanadi.

Shunga qaramay, tadqiqot mustaqil va ijodiy bajarilgan. Bitiruvchi kurs talabasi M.Ikromovaning izlanishlari bitiruv malakaviy ishlari oldiga qo`yilgan talablarga javob beradi. Mazkur bitiruv malakaviy ishini ilmiy rahbar sifatida yakunlangan ish deb hisoblayman va uni rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar
Quvvatova D.H.,
o`zbek adabiyoti kafedrasи professori, f.f.d.

Kirish

Mavzuning dolzarbliji. Zamonaviy o’zbek dostonchiligidagi mashhur tarixiy shaxslar obrazlarini badiiy gavdalantirish o’zi xos tamoyillarga ega. Alisher Navoiy, Z.Bobur, Mashrab, Mirtemir, Oybek singari adabiyotimizning taniqi vakillari siyomosi dostonchiligidagi yaratilgan. Shular orasida Boburga bag`ishlangan dostonlar alohida tizimni tashkil etadi. A.Mahkamning “Tavajjuh”, I.To’lakovning “So’nggi kecha”, T.Nizomning “Uch so’z”, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Bobur” kabi asarlari fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu mo’jaz izlanishimizda bir ma’lakaviy bitiruv ishi doirasida shu dostonlarni o’zimizgacha bajarilgan tadqiqotlarga tayangan holda o’rganishga intildik. Bu tadqiqotning dolzarblik xususiyatini belgilab beradi.

Mavzuning o’rganilish darajasi O’zbek adabiyotshunosligida O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, N.Rahimjonov, Sh.Hasanov, Sh.Murodov, D.Quvvatova kabi olimlarning tadqiqotlarida Boburga bag`ishlangan dostonlar xaqida ayrim mulohazalar bildirilgan. Xusan, S.Mamajonovning “Ranglar va ohanglar”, N.Rahimjonovning “O’zbek adabiyotida poema”, D.Quvvatovaning “XX asr ikkinchi yarmi o’zbek poemasi” kabi tadqiqotlarida yuqorida tilga olingan dostonlar qo’yilgan ilmiy muammo nuqtai nazaridan tekshirilgan. Biroq hozirga qadar Boburga bag`ishlangan dostonlar tadqiq ob’ekti sifatida o’rganilmagan. Ushbu mo’jaz tadqiqotimizda bir malakaviy bitiruv ishi doirasida shunday asarlarni tahlil va talqin etishga harakat qilamiz.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. O’zbek dostonchiligidagi yaratilgan Boburga bag`ishlangan dostonlarni syujeti, kompozistiyasi, obrazlar olami, badiiy til xususiyatlarini o’rganish ishning maqsadini tashkil etadi. Shu maqsaddan kelib chiqib, BMI o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi:

- o’zbek dostonchiligidagi yaratilgan Boburga bag`ishlangan dostonlarning mavzumundarijasini tahlil etish ;
- Boburga bag`ishlangan dostonlarning kompoziston xususiyatlarini yoritish;

- dostonlar syujetiga xos xususiyatlarni o'rganish;
- Bobur obrazini yaratishda ijodkor mahorati masalasini ochib berish;

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Ishda ilk marta bir bitiruv malakaviy ishi doirasida Boburga bag`ishlangan dostonlar maxsus tadqiq ob'ekti sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotda dostonlar kompozistiyasi, syujetiga xos xususiyatlar, Bobur siymosini yaratishdagi badiiy mahorat va badiiy til xususiyatlari yaxlit tarzda o'rganilgan. Bu ishimizning ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Malakaviy bitiruv ishining joriylanishi. Malakaviy bitiruv ishi O'zbek adabiyoti kafedrasining 2017 yil 28 avgustdagи yig`ilishida tasdiqlangan, 2018 yil yil mayda bo'lib o'tgan yig`ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 52 sahifani tashkil etadi.

I BOB. BOBURGA BAG`ISHLANGAN DOSTONLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.1. A.Mahkamning “Tavajjuh” dostonida lirik tasvir

XX asr o'zbek adabiyotida vatanimiz va millatimiz tarixida munosib nom qoldirgan tarixiy siymolarning epik va lirik timsollari badiiy gavdalantirish muhim xususiyat sanaladi. Zahiriddin Bobur ham mohir sarkarda va buyuk shoir sifatida o'chmas nom qoldirgan ana shunday siymolardan biridir. Ma'lumki, dastlab Bobur haqida P.Qodirov roman dilogiya (“Yulduzli tunlar”, “Avdodlar dovon”), X.Sultonov qissa (“Saodat sohili”) yozdi. Bu asarlar adabiyotshunoslikda munosib baholandi. Ayni jarayon she'riyatga ham ko'chdi. Bobur haqida she'r va dostonlar yaratildi. A.Mahkamning “Tavajjuh”, I.To'lakovning “So'nggi kecha”, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahriddin Muhammad Bobur”, T.Nizomning “Uch so'z”

kabi asarlari mulohazalarimizni tasdiqlaydi. Shu asosda zamonaviy adabiyotimizda Boburga bag`ishlangan dostonlar o'ziga xos badiiy tizim sifatida shakllandi. Adabiyotshunos D.Quvvatova XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostonlarining taraqqiyot xususiyatlarini o'rganar ekan, tarixiy mavzudagi dostonlarni xarakteriga ko'ra quyidagicha guruhlashadiradi: "1. Mashhur tarixiy shaxslar haqidagi dostonlar. Bunga M.Alining "Mashrab", "Gumbazdagi nur", E.Samandarning "Erk sadolari", Sh.Qurbanning "So'z yo'li", A.Mahkamning "Tavajjuh", I.To'lakovning "So'nggi kecha", S.Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" kabi dostonlari misol bo'la oladi.

2. Milliy ozodlik kurashchilari obrazi yaratilgan dostonlar. Bu silsiladan E.Vohidovning "Ruhlar isyonii", J.Kamolning "Varaxsha", "Jamila", Sh.Qurbanning "Temur Malik yurgan yo'llarda" poemalari o'rinni o'lgan".

Mazkur tasnifni quyidagicha to'ldirish mumkin: 1. Mashhur ijodkor tarixiy shaxslarga bag`ishlangan dostonlar. 2. Milliy ozodlik kurashchilari obrazlari yaratilgan dostonlar. 3. Tarixiy joy nomlari haqidagi dostonlar. A.Navoiy, Z.Bobur, Mashrab, Ogahiy, Cho'lpon, Oybek, Mirtemir singari mashhur ijodkor tarixiy shaxslar obrazlari dostonlarda badiiy gavdalantirildi. Boburga bag`ishlangan dostonlar ham shu silsilani to'ldiradi. Yuqorida tilga oлganimiz dostonlarda Bobur siymosini yaratishda lirik, liro epik, dramatik tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanilganligi kuzatiladi. Shuni inobatga olib, Bobur siymosi gavdalantirilgan dostonlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1. Lirik dostonlar (A.Mahkam "Tavajjuh", S.Sayyidning "Yuz oh, Zahriddin Muhammad Bobur"). 2. Liro-epik dostonlar (T.Nizom "Uch so'z") . 3. Dramatik dostonlar (I.To'lakovning " So'nggi kecha")

Lirik doston voqelikni epik tasvirlashda anchagina siqiqlikka asoslanadi, tasvirlanayotgan voqelikka muallif munosabatini yorqin ifoda etadi. Shu jihat bilan u poemaning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Ana shu lirik bo'yoq va siqiqlik lirik ibtido, lirik asos, lirik chekinishga keng o'rinni ajratish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham biz lirik poemani o'qiyotganimizda undan voqeя izlamaymiz. Lirik tasvir asosidan epiklik sizib yuzaga chiqadi. Shundagina

lirik qahramon qalbida kechgan kechinmalar silsilasini his eta boshlaymiz. kechinmalar, tuyg`ular tasviriga keng o'rin berilgan. Bu hislar anduh va o'kinch ruhi bilan sug`orilgan.

Asqar Mahkam ijodidagi so'zlarning o'zgacha ta'sir kuchi, joni bor deyish mumkin. "Tabriz daftari" yoki "Analhaq" kitobini o'qigan she'rxon buni darrov fahmlaydi. Unda til so'zlari emas, balki dil so'zlari bitilgandir. So'zning hozirgi ahvolini xasta Ayyub payg`ambar (a.s.)ga o'xshatgan shoir, shaxsiy manfaatlar tobora kuchayib, inson kimligini unutib qo'yayotganini, "so'z" esa o'z ta'sirini yo'qotgan; endilikda faqat kishilarning manfaat va ehtiyojlari yo'lida xizmat qilayotgan oddiy muomala vositasiga aylanib borayotganidan so'zlaydi. Va:

Menga gullar shivirlar giryon: "Bugun she'ring kimga ham kerak!.." – deya afsuslanadi.

Chunki nazm va nasr ba'zi erkin "ijodkorlar" tomonidan eplasa bo'ladigan san'at turiga, oddiy qiziqish yoki xususiy tijorat yo'liga aylanib borayotganidan, ular ta'sirida esa adabiyot olamida so'zning qadrsizlanishi kishilar uchun ijobiy natijalar bera olmayapti. Balki, shu sababdan kamdan kam kishilar kitoblarga, zamonaviy nazm va nasrga e'tibor berishadi. Adabiyot uchun oddiy hisoblangan narsani qo'llab-quvvatlashimiz, unga rahm aylab ko'klarga ko'tarishimiz oqibatida badiiy ijod ommaviy erkin mulkka, ko'pchilik qilishi mumkin bo'lgan oson vazifaga aylanib bormoqda. Vaholanki, san'atda ham, kuylash, rasm chizish, musiqa bastalash kabi jarayonlar ilohiy ilhom bilan amalga oshadi. Yuzaki hamda shuhratparastlik niyatida qilingan har qanday harakatning muxlislari muvaqqatdir. Bugun o'rtamiyona ijodkorga porloq kelajak tilaganimiz bilan, ertaga uning asarlari uzoq vaqt yashab qolishiga hech kim kafolat bera olmaydi. "Taqidda bitta ijodkorga rahm qilsangiz, bu bilan ko'plab adabiyot muxlislariga jabr qilgan bo'lasiz... Biz qalamkashlar odamni maqtab ko'kka ko'tarish san'atini yaxshi egallaganmiz-u, odamning insoniy jozibasini yuraklarini jazillatadigan darajada ko'rsatishga no'noqmiz... Quruq maqtov, balandparvoz hamd-sanolar bilan katta asarlar haqida durustroq narsa yozib bo'lmaydi... Yozuvchilik san'atining yarmidan ko'pi nimani yozish kerakligini bilishdan emas, nimani yozish kerak

emasligini bilishdan iborat...” . Jon kuydirib aytgan ustoz O. Sharafiddinovning badiiy ijod xususidagi formulalarini Asqar Mahkam o’z she’rlarida tasdiqladi va odam bo’lish sirini quyidagi misralarida bayon etdi:

Osmon o’sha... Qadimiy osmon...

Yulduzlar ham yonar to’kilmay...

Odam bo’lmas hech kim hech qachon

Buyuk Qur’on so’zin o’qimay!..

Garchi kajdir charx –

Bordir OMON

U aylanar azal shu yo’sin...

Odam bo’lmas hech kim hech qachon

Navoiyning o’qimay so’zin!..

Er aylanib turar har qalay

Ko’targancha inson zotini

Odam bo’lmas hech kim o’qimay

Mavlononing Kulliyotini!..

... So’z o’lmaydi!

O’ldirib bo’lmas!..

So’z joni ham Olloh qo’lida!..

E’tiborga molik so’zlar qarshisidagi nigohlar chinakam ijod namunasidan bahra olar ekan, yurak beixtiyor ijod haqiqatini topishga intiladi. Ammo, uzun ta’rifga ne hojat? Ijodni qisqa qilib “ilohiy payg`om” deyish mumkin. She’rdagi qoliplar, jimmador so’zlar, garchand nazariyaga muvofiqlik bo’lsin, unda ilohiy ma’rifat ruhi yashamas ekan, u o’z-o’zidan ijod mahsuliga kirib qolmaydi. Ijodning asosiy belgisi unda yashaydigan ilhom bilan namoyon bo’ladi. Ilhomsiz ijod esa, quruq harakatdan boshqa narsa emasdir. Ijodkorlikka da’vogar shaxs, avvalo ijodni anglash baxtiga sazovor bo’lmog`i kerak.

Bu o’ta murakkab ishdir. Kitobxon saviyasi yozuvchi nigohini ko’ra olishi uchun teran dunyoqarashga, yuksak ma’rifat va qalb pokligiga sohib bo’lishi talab etiladi. Ammo, ijodkorning imkoniyati cheksiz degani emas, o’z navbatida

adabiyot ulkan va cheksiz ummondek ko'rinadi; aslida uning ham mezon nuqtalari mavjud. Chunki adabiyotdan asl muddao "adab"dir. Ijodkor bu mezon nuqtalarida harakatlanmas ekan, maqsadsiz qalam surar ekan, uning mahsuli avlodlarga meros bo'lib qoladigan asarlar qatoridan o'rinn ololmaydi. Tabiiyki, nega bugungi kunning Hofizlari, Sa'diyatlari, Navoiy va Jomiyatlari chiqmayapti degan savolga javob, aynan shu erda ko'rinadi.

Ko'ngil va ruh ma'noga oshuftadir. Jismning asosi esa jon va ruhda. Inson qachon bo'lmasin, shaklbozlikdan bezib, yana ma'noga qaytadi. O'shanda chang bosib o'qilmayotgan devonlar, kulliyotlar, ruboiylar, hikmatlar qo'lga olinadi. Qalam ahli Navoiy va Jomiy bo'lishga intiladi. Nazm gulistonining cheksiz ma'rifat taratuvchilari yuzaga keladi.

Jaloliddin Rumiyni o'ziga ma'naviy ustoz va rahnamo deb hisoblagan Asqar shoirning she'riyati odatiy she'r uslubi emas. Uni anglash uchun katta ruhiy va ma'rifiy tayyorgarlik kerak. Chunki, u irfon ruhida qalam tebratgan, fors va turk tasavvuf allomalar izidan borib, ulardan o'ziga quvvat ola bilgan ijodkordir.

Shoir azizlarga bo'lgan mehrini, shu jumladan o'zini ham kamtarona ruhda tasvirlamoqda. Taqdir taqozosiga ko'ra, bu ijodkor yuragining yarmi fors, yarmi turkiy edi. Ammo uning chok-chok sitilgan yoqalarini azizlar g'azal bilan butladi. Adabiyotga havas, ustozlar ijodiga mehr, libosining ziynatiga aylandi. Navoiy, Hofiz, Rumiy, Shams Tabriziy kabi etuk allomalar bir-birlariga hamohang bo'lganlaridek, Hirot, Sheroz, Balxu Tabriz ham aziz avliyolar va ustozlar qadamidan sharaflandi va hozirga qadar bu maskanlar biz uchun muborakdir.

*Garchi ma'yus bu Musalloda
peshonamning izlari yo'qdir
lekin buzruk vor Buxoroda
Musallonning sha'ni ulug`dir
Naqshbandning chorig`i bilan
kezdim Tabriz ko'chalarini
Avliyolar qo'pdilar birdan
boshda tutib qubbalarini...*

Farishtalar uchardi engil

nurga chulg`ab go`yo bag`ringni

Avliyolar dedilar: “Bergiley musofir choriqlariningni...”

“Musallo” so’zi lug`atda “namozgoh, umumiylar namoz o’qiladigan joy” ma’nosini anglatadi. Masalan, Hirot va Sherozdagilardan musallolar, ya’ni masjidlar.¹⁰ “Garchi bu yurtlardagi ma’yus musallolarda peshonam izlari tegmagan bo’lsa-da, Buxoroi sharifning maqomi ulug`dir; hazrat Bahouddin choriqlarini kiyib, ya’ni ul muborak zotning nafaslarini olib borar ekanman, o’zga yurtning avliyolari “choriqlariningni ber”, deya meni o’rab oldilar” – demoqda shoir.

Shoirning she’rlari shunchaki irfoniy emas. Agar teran nigoh tashlasak, bu she’rlar zamirida hikmat va ibrat dunyosini ko’ra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam tasavvuf ruhiyatiga murojaat qilganida uning qoidalari va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g`azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o’z ijodi zamirida Hofizdek ustozlar turishini tevoze’lik bilan tan oladi. Navoiy ta’biri bilan aytganda, o’z ijodi va hayotidan masrurlik, unga mahliyo bo’lishlik shoirga mutlaqo begonadir. Uning she’rlarida kamtarona falsafiy ruh kezinadi:

Umr kechdi xobu xulyoda

o’tdi qancha azizlar yig`lab...

Hamma shoshib turgan dunyoda

o’tiribman yalpizni hidlab...

So’ng yalpiz ham bir-bir to’kildi

o’z hukmini aytdi tiriklik...

Birov valiy birov shayx bo’ldi

menga qoldi tomoshabinlik...

Ushbu satrlarda dunyoni chetdan kuzatayotgan inson tasvirlangan. Go’yo umr uyqu va xayol ichra o’tib ketmoqda, odamlar nimalargadir shoshib, elib-yugurmoqda. Kimdir bu orada shayx bo’lib, kimdir valiy bo’lib ulgurdi, ammo bir insongina ularni tomosha qildi. O’zgalar ortidan ergashmadi, chunki uning hayotdan o’z maqsadi va vazifasi bor. Asqar shoirning nafaqat ushbu she’ri, balki

umuman ijodida hayotga chetdan nigoh tashlagan insonning tasviri bor. Qaysi bir misraga oshino bo'lmaylik, tashqi muhitni yuqoriqdan kuzatib turgan siymo gavdalanadi unda. Bu bejizga emas. Sababi shoirning o'zi hayotda haqiqatparast edi. Balki shu sabab uning ijodida haqiqat sadolari baralla yangragandir.

Asqar Mahkam ijodi ulkan ummon va betakror jozibadan iborat. Uni qanchalik tadqiq qilmaylik, bu xazina chashmasi sira tugamaydi. Hatto bir baytning ustida soatlab bahs olib borish, fikr yuritish mumkin. Sababi, unda irfon dunyosi yashaydi. Asqar shoir she'rlariga ilhom bergen narsa Qur'on oyatlari, hadis ilmi deb hisoblardim. Va bu kitoblarga bo'lgan ulkan muhabbat uning ijodida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

She'rlardagi keskir qarashlar, shirin va ba'zan achchiq so'zlar shoir ijodida haqqoniy tilga olingan. Ya'ni, u yasama so'z termaydi, hijron deganida, boshqalar ham qo'shilib yonadi. Ishq deganida, o'zgalar ham oshiq bo'ladi, shoir nadomat chekkanida, o'quvchi ham qo'shilib, o'sha ruhiy holga beixtiyor tusha oladi.

Shoir she'riyatidagi tasavvufiy, irfoniy ohanglar, mazmun uning dostonlariga ham ko'chdi. "Ishq", "Fotiha", "Tavajjuh" singari dostonlar mulohazalarimizin tasdiqlaydi. Boburga bag`ishlangan «Tavajjuh» dostoni ham tasavvufiy mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Shoир Bobur hayotining millat va Vatan taqdiridagi g`oyat muhim nuqtalarini, ruhiy holatlarini qalamga oladi. Xususan, asarning «Mirzo Bobur tazarrusi», «Mirzo Boburning muroqabasi», «Mirzo Boburning piri Shayx Hikmatulloh ibn Ziyodullohga maktubi» fasllarida ana shu ruh yorqin seziladi. Doston insonning yashashdan maqsadi, ruh va nafs munosabati masalalarini badiiy talqin etishga bag`ishlangan. Aslida ham shunday. Shoirning har to'rt dostoni ham betakror uslubda yaratilgan. Sababi, mazkur asarlarga mazmun jihatdan boshdan-oyoq mumtoz dostonlar ruhi singdirilgan. Ularda tasavvufiy terminlar (tavajjuh, tazarru, muroqiba, qalandar, tasbeh, aso, kachkul kabi) keng qo'llanilib, shoirning g`oyaviy-badiiy maqsadini yuzaga chiqaruvchi vosita vazifasini o'tagan.

Doston Boburga bag`ishlangan tarixiy mavzudagi asarlardan farqlanib turadi. Chunki unda tarixiy voqealar tasviriga keng o'rinn berilmagan. Balki ularga

ba'zi ishoralar bor. Dostonning «Mirzo Boburning qazo va kadar haqida o'ylaganlari» qismida Ibrohim Lo'diy bilan Bobur munosabatiga ishora qilib o'tilgan:

Ibrohim Lo'ddining yoy o'qi yanglig`
janub bodi qoldi so'ngagim aro.

Dostonning yana bir muhim jihatni, boshidan oxirigacha g`azalning qofiyalanish shakli saqlanganligi bilan belgilanadi. Buni mumtoz adabiyotdagi an'analing yangilanganligi sifatida ham baholash mumkin. Chunki butun boshli dostonni bir xil shaklda – g`azal qofiyasidan foydalangan holda yaratish shoir uslubining betakror xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Shoirning poetik fikrni falsafiylashtirishi, voqelikni, ma'naviy-ruhiy jarayonlarni mumtoz dostonlarga xos uslub va shaklda ifodalashga intilganligi fazilatdir. «Tavajjuh» dostonidagi lirik tasvir o'zgacha. Unda lirik asos badiiy chizgilarda o'z ifodasini topadi. Dostonda shoh va shoir Boburning qalb dunyosi manzaralari berilgan. Unda, asosan, kechinmalar surati chizilgan. Natijada dostonda tarixiylikdan ko'ra umuminsoniy jihatlar bo'rtib ko'rindi. Kitobxon ko'z o'ngida tarixiy shaxs – Bobur, avvalo, iztiroblarda o'rtangan, o'kinch va armondag'i inson sifatida gavdalanadi. Ana shu jihat tarixiy mavzu talqinidagi yangi usullardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Garchi shoir tarixiy shaxs hayotini asos qilib olgan bo'lsa-da, unda bugunning dardlari, umuminsoniy jihatlar yaraqlab turadi.

Doston boshidan oxirigacha Bobur monologlaridan iborat. Unda shoir monologning ikki xilini uyg`un holda qo'llagan. Asarning sof monolog asosida qurilgan Bobur o'ylari shaklida berilgan qismlarida shoh va shoirning o'z-o'ziga murojaati muhim o'rin tutadi. «Mirzo Boburning qazo va kadar haqida o'ylaganlari» qismida Boburning o'z qismati aks etgan satrlar mayjud:

Yo Bor Xudo, tuman jahongirdan so'ng,
Qur'on, qalam, qilich tutgan foniymen.
Yo Bor Xudo, Temur naslidan so'nggi
Bodiylar kechgan Andijoniyman [262].

Satrlardan ma'lum bo'ladiki, minglab jahongirlar orasida Bobur alohida ajralib turadi. Chunki u uch narsa: Qur'on, qalam, qilichni tutgan shohdir. Yana mazkur misralarda biografizm ham mavjud. Ya'ni uning Temur avlodi va Andijondan ekanligi ifoda etilgan. Yoxud «Mirzo Boburning muroqabasi»da Bobur o'zini «cho'qqi uzra o'lgan burgut», «toshdek sukut»ga tenglashtiradi. Bunda ulug` shaxsning o'zi anglagan fojialari aks etgan.

Boburning shoир qalbi hamishaadolatsizlik, vafosizlik, xiyonat kabilardan ozor chekadi. Shu bois o'zini «yori zor», «xoru zor» deydi. Binobarin, bu ifodalarda Boburning Vatandan ayriliqdagi holati badiiy aks ettirilgan.

«Tavajjuh»dagi maktublarda murojaat ruhi ustuvor. Ayni choqda Boburning o'z-o'ziga qarata aytgan fikrlari ham o'rinni olgan. Shu tarzda shoh hamda shoир Boburning qalb dunyosi manzaralari, uning ona yurtidan ayrilgach, musofirlikda chekkan iztiroblari, o'kinch va armonlari talqin qilingan.

Shoir Bobur hayotining millat va Vatan taqdiridagi g`oyat muhim nuqtalarini, ruhiy holatlarini qalamga oladi. Mirzo Bobur maktublari orasida Alisher Navoiyga yo'llangan xat muhim o'rinni tutadi.

Mazkur maktubda Bobur o'zining piru ustozini Alisher Navoiyga dardlarini, alamli kechinmalarini to'kib soladi. U ulug` shoirning millat, Vatan oldidagi xizmatlarini e'tirof etgan holda xalqning fojialarini ham qalamga olgan:

Hazratim, sahroyi turk lisonini
samumdan samoga eltdi ta'bingiz [282].

E'tibor berilsa, xatda dastlab Alisher Navoiyning o'zbek tilini yuksaltirishdagi xizmatiga urg`u berilgan.

Hazratim, Siz ilk bor sargashta turkning
To'zonlarin asta yuzdan artdingiz
Sahroyi go'rlarda yotgan o'likning
Tomiriga kirib bordi baytingiz [284].

Alisher Navoiy turkiy tilning boy til ekanligini isbotlab, o'z asarlarini shu tilda bitganligi ma'lum. Shoир shunga asoslanib, o'zbek xalqini «sargashta turk» deydi. A.Navoiy esa parokanda xalqning tilini yuksaklikka ko'tarish orqali uning

yuzidagi to'znlarni artdi. Shu tarzda g`aflatda yotgan «sahroyi go'rlarda yotgan o'lik» – o'zbekning tomiriga Navoiy baytlari singa bordi.

Yakqalam qildingiz, ey piri fano,
Siz darvish siyrati ila Karbalo
Dashtida topdingiz so'fiy turklarni.

Alisher Navoiy baytlari yetib bormagan birorta turkiy xonadon yo'q. «Turk nazmida men tortib alam, ayladim ul mamlakatni yakqalam», – deb yozadi shoir. A.Mahkam yuqoridagi misralarda xuddi shunga ishora qiladi.

Pirim, Siz yakqalam qilgan bu yurtlar
yakka-yakka bo'lib so'ydi bir-birin.
qonga botdi devon ichra surudlar
oyoq osti bo'lди Qoshg`ariy tili.

Bu satrlar tarix sahifalaridan so'zlaydi. Navoiy yashagan davrda o'zaro taxt talashishlar avj oldi. Shoir «qonga botdi devon ichra surudlar» der ekan, turkiy tilda yaratilgan nazm durdonalarini nazarda tutadi. M.Qoshg`ariy o'zbek tili lug`atini tuzib, xalqqa taqdim etgan. Shuning uchun shoir «Qoshg`ariy tili» – turkiy tilning oyoq osti bo'lganligidan o'kinadi.

Yoki:

Qirg`iy ko'zlarida yondi jaholat,
Tomirlarin yordi sahroyi qoni.

Bunda ham tarixiy voqelikka ishora mavjud. Ya'ni qirg`iy ko'z deyilganda Shayboniyxon nazarda tutilmoqda. U – sahroyi o'zbeklardan.

Yoxud «Mirzo Boburning Shayboniyxonga maktubi»da Bobur Shayboniyga murojaat qiladi. Unda oddiy insonning hayot haqidagi fikrlari tajassum topgan:

Shohona jismimiz tugasa chirib,
Na Shaybon, na Bobur – bir siqim ermiz [290].

Binobarin, insonning bu dunyodagi hayoti sarhadli. Uning eng ezgu amallari yorug` dunyoda qadr, u dunyoda esa abadiyat topadi. Shu ma'noda jism abadiy emas. Bu misralarda Yassaviy ruhi sezilib turadi. Ya'ni Bobur aytmoqchi, shoh ayni zamonda oddiy inson hamdir. Demak, Bobur ham, Shayboniy ham bu

dunyoni tark etgach, bir siqim tuproqqa aylanadi. A.Mahkam ana shundan bugunning insonlarini ogohlantiryapti.

Ma'lumki, Bobur va Shayboniy bir davrda shohlik masnadiga erishganlar. Boburning Shayboniyga nafrati baland. Shoh bo'lgani uchun emas, shohlikdagi nomaqbul yo'li, ishlari uchun:

Siz uchun, egarda yo'rgaklangan xon,
Andijon xokidan urvoq bermasman.

«Egarda yo'rgaklangan xon» Shayboniyxondir. Bunda Shayboniy xarakteriga xos takabburlik, xudbinlik aks etgan. Ikkinci misrada esa Boburning o'z Andijoniga sadoqati ifoda etilgan:

Bizni azal zulmparvar demishlar,
men-da bu oyinga amal qilmayman.

Bunda Bobur xarakteriga xos muhim jihat yuzaga chiqqan. Zolim shohlarga nisbatan zulmparvarlik qo'llangan. Bobur necha qonli voqealar, adolatsizliklarga guvoh bo'lgani uchun shoirona qalb va yuksak aql bilan ularning oldini olishga, xalqparvar bo'lishga harakat qilgan. Shu jihatga ko'ra u o'zini shoh Shayboniy bilan bir qatorda ko'rmaydi.

Umuman olganda, A.Mahkam maktub usuli orqali Boburning millatparvar, vatanparvar sifatidagi siymosini va uning o'z zamondoshlariga munosabatini ifoda etadi. Boburning o'kinch va alamlarga to'la maktublarida tarixiy shaxslarga murojaat etish orqali millatning fojialarga to'la murakkab davrlarini qalamga oladi. Asarning tasavvufiy mazmun-mohiyati ham shu monologlarda aks etgan.

I.2. S.SAYYIDNING “YUZ, OH, ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR” DOSTONIDA BOBUR RUHIY DUNYOSI IFODASI

Temuriyzoda sultonlardan biri, ulug` shoir va davlat arbobi, yirik sarkarda va benazir tarixnavis Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi davru zamonlar o'tgani sayin necha avlod ijodkorlarini qiziqtirib kelmoqda va bundan buyon ham shundoq bo'lmog`i muqarrar. “Shoirligi shohligidan, shohligi

shoirligidan ulug`” hazrati Bobur qisqa bo’lsa-da, nechog`li ziddiyat va qarama-qarshiliklar, matonat va jasoratlarga boy sertahlika va sermazmun hayot yo’lini bosib o’tgani o’quvchilarga yaxshi ma’lum. Vaqt o’tgani sari ulug` ajdodimizdan qolgan ulkan ijodiy merosning qadr-qimmati yanada zalvor va salmoq kasb etmoqda. Aslida, “Temuriyzoda sulton Zahiriddin Muhammad Bobur” deyilishining o’zidayoq hamma gap aytib bo’linganday, shu maqom va nom tilga olinishi bilanoq boshqa so’z va izohga o’rin yo’qday.

Uzoq yillardan buyon dilda yashab, xotirda yangrab kelayotgan o’tli-hasratli satrlar: “Har kimki vafo qilsa vafo topqusidur, Har kimki jafo qilsa jafo topqusidur”, “Yaxshilig` ahli jahonda istama Bobur kibi, Kim ko’rubdur, ey ko’ngul, ahli jahondin yaxshilig`.” Va, albatta, abadiyatga raqamlangan bu ohlar, alamlar: “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...”, “O’z yurtni qo’yib, Hind sori yuzlandim, Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig` bo’ldi?!” , “Xazon yafrog`i yanglig` gul yuzung hajrida sarg`ardim”. Yoki: “Mening ko’nglumki gulning g`unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o’lsa, ochilmog`i ne imkondur”.

“Boburnoma”ni o’qib, Boburni o’qib amin bo’lganimiz: yo’q, yuz oh emas – yuz ming-yuz ming ohu zor, yuz ming-yuz ming sog`inchu firoqdan tuzilgan ekan bu umr, yuz ming emas – yuz ming uzra yana yuz ming bahor kelsa ham mangu munslug` bu ko’ngilning ochilmog`iga deyarli imkon yo’q ekan.

Xalqimizning sevimli shoiri S.Sayyid Bobur hayotidan ta’sirlanib, lirik ruhdagi “Yuz oh, Zahiriddin Muhamad Bobur” nnomli go’zal dostonini she’rxonlar, adabiyot ixlosmandlariga tuhfa etdi. Bu haqda shoirning o’zi shunday yozadi: “Ustoz adiblar maktabi va tajribasidan o’rgangan holda, burch va havas taqozosi yuzasidan men ham bir qalamkah sifatida Bobur bobo ijodiga murojaat qilmoqqa jur’at etdim. Va bu – nihoyatda qisqa, ammo tunganmas hayotning, zim-ziyo olamni yoritgan chaqinday tez so’ngan, lekin, mana, besh yuz yillardan buyon to’xtamay davom etib kelayotgan, mardlik va matonat, g`urbatu firoq, mehnatu alamlarga to’la umrning yuz lahza, yuz holatini qo’limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim. Goh Bobur hazratlari tilidan, goh o’zimdan, gohi she’r,

gohi g`azal tarzida, gohi ruboiy, gohi muxammas shaklida ko'nglimdagilarni, niyat va maqsadimni insho etishga urinib ko'rdim. Shu jihatdan tagsarlavhada "doston" deb yozilgan bo'lsa-da, bu bitiklarni doston yo'lidagi bir jahd yo urinish deyilsa to'g`riroq bo'lar. Bino yoxud imoratda bo'lgani yanglig`, buning poydevoriga "Boburnoma" dan, Bobur she'riyatidagi eng nozik nuqtalardan – xotiralar, o'y va kechinmalar, misralar bilan bayt va ruboiylar asos qilib olindi. Binoning tarhi-loyihasi nechog`li puxta-pishiq chiqqani, g`ishtlari bilan sinchlari qanchalar to'g`ri qo'yilgani, shuvog`iyu bo'yoqlarigacha baho berish – zukko o'quvchiga havola. Faqat bir tahlika: Bobur boboning qattiq, sinchkov nazari, ul zotning "Boburnoma"da Sulton Mahmud Mirzo haqida "Tab'i nazmi bor edi, devon tarkib qilib edi. Vale she'ri bisyor past va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmag`on yaxshiroqdur" degan qat'iy va keskir so'zлari hozir ham manglayim uzra qilichdek yarqirab turgandek tuyuladi..."

Sirojidin Sayyid ijodida Bobur obrazi talqini alohida sahifalarni tashkil qiladi. Uning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" (2011) nomli dostoni buning dalilidir. Bu kitob haqida shoirning o`zi kitob muqaddimasida shunday deb yozadi: "Ustoz adiblar maktabi va tajribasidan o`rgangan holda, burch va havas taqozosi yuzasidan men ham bir qalamkash sifatida Bobur bobo ijodiga murojaat qilmoqqa jur'at etdim. Va bu qisqa, ammo tiganmas hayotning, zim-ziyo olamni yoritgan chaqinday tez so`ngan, lekin, mana besh yuz yillardan buyon to`xtamay davom etib kelayotgan, mardlik va matonat, g`urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to`la umrning yuz lahma, yuz holatini qo`limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim. Goh Bobur hazratlari tilidan, goh o`zimdan, gohi she'r, gohi g`azal tarzida, goh ruboiy, gohi muxammas shaklida kong`limdagilarni, niyat va maqsadimni insho etishga urinib ko'rdim"¹

Sirojiddin Sayyid she'riyatida Bobur siymosi rangin bo`yoqlarda to`laqonli gavdalantirilgan, uning shaxsiga alohida ehtirom ko`rsatilgan. Bu Sirojiddin Sayyidning Bobur shaxsini, Vatan tarixini chuqr bilgani va sevganidandir.

Shoirning "Uyqulik baxt" nomli g`azaliga ham Boburning

“Na xush bo`lg`ayki bir kun uyqulik baxtimni uyg`otsam,

Kechalar tori mo`yidek beliga chirmashib yotsam”

bayti epigraf sifatida tanlab olingan va shu ikki misra uchun shoir ushbu g`azalni yatargan.

Jomi baxtim erdi doim goh qurum, goh quyqaliq,

Nozanin ko`rdim u kun, bir nozaninkim uyquliq.

Qosh-u mijgonlar qabqlardan xabar olmas edi,

Uyqusida aylagim keldi anga bir xush qiliq.

G`azal aruzning ramali musaddasi mahzuf tarmog`ida yaratilgan. Sirojiddin Sayyid Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga o`zgacha qiziqish va ehtirom bilan qaragan va bu ehtirom ushbu g`azalga mohirlik bilan singdirilgan.

Oq bo`yinda uxlagan zulflar aro oldim nafas,

Oq bo`yinda xolining atroflari bir xush, iliq.

G`azalni o`qir ekanmiz, Bobur ijodiga xos bir xususiyatni, ya’ni g`azalda aytidayotgan fikrlar bevosita o`quvchi ko`z oldida gavdalanib borish holatini kuzatamiz. Bu Bobur ijodining Sirojiddin Sayyid g`azaliyotiga o`tkazgan ta’sirining ifodasidir.

Kaftlarim otash edi-yu ul sanam otash edi,

Qo`l yuborsam ham kuyardim, gar yubormam – kuyguliq.

Yuqoridagi baytda esa, shoir so`z o`yini qiladi, ya’ni yor - otash, oshiq unga qo`l uzatsa ham kuyadi, uzatmasa ham qalbi yonib kul bo`ladi. Har ikki holatda ham oshiq otashda yonishga mahkum. Keyingi baytda esa shoir tashbeh san’atidan mohirona foydalagan. Ma’shuqaning uyqusini dayoga, o`zini esa oq baliqqa o`xshatgan.

Men uning noz uyqusidin jon bila oldim havo,

Uyqusi dayo edi, ul nozanin bir oq baliq.

Sochlaridan tola- tola tanladim dil toriga,

Shungacha bo`lgan hayotim rishtasi qoldi yuliq.

Keyingi baytda esa shoir o`z umrini bog`ga, ma'shuqani esa shu bog`dagi gulga qiyoslaydi.

Olgil umrim bog`idan bor gullaring, taqdiri haq,

Suygulik qilsang mani qilgil shu gulag suyguliq.

Maqtada bularning barchasi tush ekanligi va tushning o`zi shoirning baxti ekani ta'kidlanadi, ya'ni ma'shuqa oshiqning baxti, oshiq uni tushida ko`rdi, demak, tush - oshiqning baxtidir.

Ko`rganim bul bari, do`stlar, tush edi, ro`yo edi,

Ul mening baxtim edi-yu, baxtim erdi uyquliq.

Zahiriddin Muhammad Boburga bo`lgan ehtirom faqt Sirojiddin Sayyidning qalbida emas, balki, butun O`zbekiston xalqi qalbida jo`sh urmoqda desak xato bo`lmaydi. Sirojiddin Sayyid ana shu xalqning bir vakili sifatida o`z ijodi orqali bu ehtiromni ko`rsatishga harakat qilib kelmoqda. Bu mustaqilligimiz, hukumatimizning o`tmish ajdodlarimiz merosiga bo`lgan buyuk e'tibor bilan bog`liq. Umuman, milliy qahramonlarimiz bo`lgan buyuk shaxslar hayotining serma'no hikmatlari va ular haqida muhabbat bilan yaratilgan g`azallar jamiyatimizning kelajagi bo`lgan yoshlар ongiga ta'sir ko`rsatadi, ularni ajdodlarga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Dostonni shoir “Firoq va sog`inch dostoni deb nomlaydi. Mazkur asar zamonaviy doston janridagi asarlardan farq qiladi. Unda lirik tasvir ustuvorlik qiladi. Shoир bunda Bobur hayotini xronologik tarzda aks ettirmaydi. Ya'ni doston an'anaviy dostonlar kabi voqeabandlik asosiga qurilmagan. S.Sayyid shoir ruboiliali va “Boburnoma”dan epigraf xarakteridagi badiiy parchalarni keltirib,

ularga lirik munosabat bildiradi. Ayni zamonda Bobur hayoti bilan bog`liq eng muhim lahzalarni qalamga oladi. Asar quyidagicha ibtido topadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko`rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko`rdum.
Har kim bu “Vaqoyi”ni o’qur, bilgaykim,
Ne ranju, ne mehnatu, ne alamlar ko`rdum.

* * *

—Har vaqtki, ko’rgasen mening so’zumni,
So’zumni o’qub, sog`ingaysen o’zumni.

E’tibor berilsa, yuqoridagi Bobur qalamiga mansub satrlar debocha vazifasini o’tamoqda. Ushbu parcha orqali shoir aytmoqchi bo’lgan poetik fikr oydinlasha boradi. Unda mashhur “Boburnoma”ning yozilish sababi o’z ifodasini topgan. Shu tarzda shoir asarning qimmatli jihatini t’kidlab, uning shoh shoirdan avlodlarga mangu o’lmas qadrnama va ko’ngil lolasi, umr nolasni bo’lgan “Taqdirnoma” deya baholaydi.

“Boburnoma”,
“Boburnoma” –
Shoh shoirdan avlodlarga
Mangu o’lmas
Qadrnama.
Bunda ko’ngil lolasidir,
Bunda umr nolasidir,
Dardu g`am maqolasidir,
Gar bir noma –Taqdirnoma.

Ma’lumki, Bobur o’g`li Humoyun betob bo’lganida, atrofidan uch marta aylanib, Ollohdan farzandining dardini o’ziga o’tishini iltijo qilib so’raydi. Shundan so’ng Humoyun oyoqqa turib, Bobur to’shakka yotib qoladi. “Umri o’g`liga baxsh ketgan” deganda xuddi shu tarixiy voqelikka ishora qiladi. Shu ma’noda “Boburnoma”ni xotirnoma deya baholaydi. Bobur hayoti va faoliyati

shoir uzoq yillar tax'sirlantirgani, o'ziga tortgani uchun ham asarini dil dostoni deb ataydi. Shundan kelib chiqib, ““Boburnoma”” sabrnama deydi.

Umri o'g`liga baxsh ketgan,
O'z so'zini kafan etgan,
O'zini o'zi dafn etgan.
Qalbda qoldi qay bir noma?
“Boburnoma” – Xotirnomा.
Bu – mening ham dil dostonim,
Shuncha ekanmi armonim?
Qanday chidabsiz, sultonim?
Sabrnama “Boburnoma”,
Sabrnama “Boburnoma”.

“Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn” va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o'qub edi. Aksar “Shohnoma” o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg`a parvo qilmas edi”.

(Sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi 1494 yil voqialari)
Yuqoridagi parcha Boburning otasi haqidagi fikri.
“Shohnoma” o'qiydi Umarshayx mirzo,
O'qir “Xamsatayn”lar ohnomasini.
Bilmaski, o'z o'g`li aylagay insho
Bir buyuk millatning “Shohnoma”sini.

Memuar xarakterdagi asarda Bobur otasi Umarshayx Mirzoning taebi nazmi borligini, tarix kitoblarini mutolaa qilganligini, lekin she'r yozishga qunt qilmaganini yozadi. Shoirning e'tiroficha, Umarshayx mirzo o'g`lining “bir buyuk millatning” “Shohnomasi” “Boburnoma”ni ko'rish nasib etmaganligini chuqur bir iztirob bilan ifoda etadi.

Shoh shoirning ohnomasi – “Boburnoma”,
Harbu zarb, janggohnomasi – “Boburnoma”.
Firdavsiyning “Shohnoma”si bordir agar,
Turkiylarning shohnomasi – “Boburnoma”.

Yuqoridagi satrlarda shoir “Boburnoma”ga ta’rif berar ekan, uning cheksiz ma’naviy qudratini ifoda etadi.

Ma'lumki, Boburning otasi Umarshayx Mirzo Aksi qo'rg'onida kabutarxonasi bilan birga qulab, “shunqor bo'ladi”, ya'ni halok bo'ladi. Bu paytda Bobur o'n ikki yoshga to'lgan edi. U taxt vorisi sifati Farg`ona viloyatida podshoh bo'ladi. Quyidagi parchada Bobur shu tarixiy voqelikdan so'zlamoqda “Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda Farg`ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'lbum”. (Sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi (1494) yil voqialari)

S.Sayyid bunga quyidagicha lirik munosabat bildiradi:

Mushtariy yarqirar avji fazoda,

Movarounnahr yana nizoda.

Mirrix va yo Zuhal to'zg`itdimi chang –

Erda boshlanadi to'polon yo jang.

Hali xayollari tiniq ham sodda –

O'n ikki yoshli bir Temuriyzoda.

Hali otasi ham jardan uchmagan,

Ko'ngil polaponin hijron quchmagan.

Xayoli ko'kdagi kaptarlardadir,

Bilmaski, bor umri xatarlardadir.

Bilmas, ne bitilgan hukmi qazoda,

O'n ikki yoshli bir Temuriyzoda.

Bunda shoir o'n ikki yoshli shoh Boburning bola dunyosini badiiy ifoda etadi. Nihoyatda beg`ubor bolalik dunyosida yashayotgan, “xayoli kaptarlarda” bo'lgan yosh Bobur uchun taxtni egallash “Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati” edi.

Dostonning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, S.Sayyid shoir baytlarini keltirib, ularga go'zal muxammaslar bog`laydi:

Ne erda bo'lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G`aribingg`a tarahhum aylag`ilkim, Andijoniydur.
Muxammaslar Bobur ruhiyatidagi iztirobli holatlarni o'zida ifoda etadi:
Bulut ermas, ko'k uzra tarqagan ko'ngil gumonidur,
Gumon qilmak bu damda begumon dilning ziyonidur,
Ko'kargan xor ila xaslar tiriklikning nishonidur,
Bahor ayyomidur dag`i yigitlikning avonidur,
Ketur, soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.
Nigorning chehrasi goh ishq naqlidin erur gulgum,
Gahi_husnu latofat, gohi aqlidin erur gulgum,
Bukun bog`im mening yor qaddi naxlidin erur gulgum,
Gahe sahro uzori lola shaklidin erur gulgum,
Gahe sahni chaman gul chehrasidin arg`uvoniydur.
E'tibor berilsa, g`azal ustiga qo'shilgan uch misra mazmuni nihoyatda
teranlik kasb etgan.

Quyidagi parcha Vatan mavzusidan bahs etadi: "Bir-ikki kundin so'ng Kandirlik doboni bila Axsi va Andijon sari azimat qildim. Axsig`a etib otamning mazorini tavof qildim". (To'qqiz yuzinchi (1494-1495) yil voqialari). Sirojiddin Sayyid bu ma'lumotni shunchaki qabul qilmaydi, balki otasining mozorini tavof qilgan farzand qalbida Vatanga bo'lган qaynoq muhabbatni tuyadi.

Shoir Bobur hayotidagi ushbu hayotiy lavhani she'rga solar ekan, Andijonni "payvandi jon" deya ulug`laydi. Shu asosda Vatandan ayro tushgan, biroq uning ishqida yongan vatanparvar siyosini ko'z oldimizda gavdalantiradi. "Qirlarida lolalar bag`rimda qon ko'rinaridir" degan xuddi shu Vatan sog`inchi, qalb iztirobi o'z ifodasini topgan. Shoирning Vatandan uzoqdagi holati xazon yaprog`iga qiyoslangan.

Andijon ko'rinaridir,
payvandi jon ko'rinaridir,
Osmoni erda, eri
osmon ko'rinaridir.

Ot chopib yurganlarim
yodimga tushsa har zamon,
Qirlarida lolalar
bag`rimda qon ko'rindir.
Ey Samarqand, alvido,
osmonlaringni o'ylasam,
Har bulutdin menga bir
sohibqiron ko'rindir.
Bir xazon yaprog idek
men bu diyordin ketcisham,
Ko'zima ikki jahon
bargixazon ko'rindir.

“Boburnoma”dagi tarixiy voqealarni keltirgan: “Temurbek solg`on oliv imoratlardin biri Ko'ksaroydurkim, Samarqandning arkida voqi' bo'lubtur. Ajab xosiyatliq imorattur. Temurbek avlodidin har kim bosh ko'tarib taxtga o'ltursa ham munda o'lthurur, har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yars...”

(To'qqiz yuz birinchi (1495-1496) yil voqialari)

* * *

“Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdandur... Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar... Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug` podshoh Samarqandni poytaxt qilg`on emastur...”

(To'qqiz yuz uchinchi (1497-1498) yil vo_ialari)

* * *

“Temurbekning va Ulug`bek mirzoning imoroti va bog`oti Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug` ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq, Ko'ksaroyg`a mavsum va mashhur va bisyor oliv imorattur. Yana Ohanin darvozasig`a yovuq qal'aning ichida bir masjidi jum'a solibtur, sangin, aksar Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qiliburlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni “Va iz yarfau Ibrohimal-havoida (ilo oxirihi)” andoq ulug` xat

bila bitibturlarkim, bir kuruq yovuq erdin o'qusa bo'lur. Samarqandning sharhida ikki bog` solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog`i Bo'ldudur, yovuqrog`i Bog`i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasig`acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig`ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug` ko'shk soldurubtur, ul ko'shkta Temurbekning Hinduston urushini tasvir qiliburlar. Yana Pushtai Ko'hakning domanasida Konigelning qora suyining ustidakim, bu suvni Obirahmat derlar, bir bog` solibtur. Naqshi jahong`a mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog` buzulub erdi, oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida Bog`i Chanordur, qal'ag`a yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog`i Shamol va Bog`i Bihishttur. Temurbekning nabirasi Jahongir mirzoning o'g`li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning toshqo'rg`onida – chaqarda bir madrasa solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandga podshohlik qilibtur, alarning qabri ul madrasadadur”.

(To'qqiz yuz uchinchi (1497-1498) yil voqialari)

Ushbu parchalarda Temur bilan bog`liq tarixiy voqelikka daxl qilingan. S.Sayyid ushbu tarixiy voqelikka quyidagicha lirik munosabat bildiradi:

Temurxon din hikoyat aylagaylar bu imoratlar,
Zamonlardin rivoyat aylagaylar bu imoratlar.
Falak, gunbazlaringni Erda ko'rdim men shu ma'voda,
Ajab sehru sinoat aylagaylar bu imoratlar.
Buyuk bu sultanat dong`i qaritgay ming asrlarni,
Asrlarni bidoyat aylagaylar bu imoratlar.
Tamomi etti iqlimni sharaf ovozasi kezgay,
Muqim holda sayohat aylagaylar bu imoratlar.

Shoir Temur davridagi bunyodkorliklarga urg`u beradi, u qudirgan imoratlar umrboqiyligidan so'zlaydi. G`azal shaklida yozilgan bu she'riy parcha “ajab sehru sinoat aylagan” ulkan imoratlar mahobatini, ulug` Temur yaratgan sultanatning ulug`vorligini o'zida ifoda etadi.

Asar boshdan oyoq ana shu ruh va mazmun bilan yo'g`rilgan. Zero, “Boburnoma”dan keltirilgan parchalar t arixiy voqelik asosida qurilgan bo'lsada,

S.Sayyid ularni shunchaki sharhlash yo'lidan bormaydi, balki ularga lirik ruh bag`ishlaydi. Garchi katta parchalar sahifalarni egallaganday taassurot uyg`otsa da, biroq ular shoir ifodamoqchi bo'lgan g`oyalarni yoritish uchun zarurligi anglashilib turadi. Umuman olganda, doston istiqlol yillari she'riyatida Bobur haqida yaratilgan yangicha uslubdagi asar sifatida alohida mavqe egallaydi.

I.3. I.TO'LAKOVNING “SO’NGGI KECHA” DOSTONIDA DRAMATIK TASVIR IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

O'zbek adabiyotida I.To'lakovning Boburga bag`ishlangan «So'nggi kecha» dramatik dostoni qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Asardagi obrazlar aksariyati tarixiy shaxslardan iborat. Zahiriddin Bobur, Oftobachi, Xondamir, Mohim, Humoyun, Ali Satranjiy shular jumlasidandir. Asarda Bobur hayotining so'nggi kechasida yuz bergen voqealar asos qilib olingan. Poemaning o'ziga xosligi – voqeabandlikning yetakchi xususiyat darajasiga ko'tarilmaganidir. Bobur va Oftobachi, Bobur va Xondamir, Bobur va ruhlar (Amir Temur va Navoiy), Bobur va Ali Satranjiy, Bobur va darvish, Bobur va savdogar dialoglari orqali Boburning shoh va shoir dunyosi, ona Vatandan yiroqdagi iztirobli, armonli kechinmalari aks ettirilgan.

Aslida shoir bir kecha kechmishini bayon etishni ko'zlagan esa-da, muloqotlar shoh va shoir qiyofasini yaxlitligicha badiiy gavdalantira olgan.

To'g`ri, adabiyotimizda aynan shu voqelik P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romani, X.Sultonovning «Saodat sohili» qissalarida o'z ifodasini topgan. Bunda yozuvchilar epik tasvir prinstiplaridan kelib chiqqan holda an'anaviy xronologiya usulidan foydalanishgan. Biroq I.To'lakov boshqacha yo'ldan borgan. U keyingi paytda lirik va epik asarlarda urf bo'layotgan xotira usulini qo'llagan. Bu usul asarga lirik ruh olib kirgan. Bobur bemor lahzalarida o'z boshidan o'tganlarini eslaydi. Xususan, g`alaba va mag`lubiyat onlari, vatan ishqi bilan yongan shoir qalbning orzu-kechinmalari, o'kinch va armonlari tasvir etilgan o'tli satrlarda

kuzatish mumkin. Shu orqali ushbu dramatik doston chuqur lirizm bilan sug`orilgan.

Taniqli yozuvchi P.Qodirov: «Boburning farzandlari orasida eng uzoq umr ko'rgan va saksonga kirgan Gulbadanbegim bolaligida ko'rgan-bilganlarini «Humoyunnomma»da batafsil yozgan. U otasining oxirgi paytda toju taxtdan astoydil ko'ngli qolganiga, hokimiyatni Humoyunga berib, o'zi Tohir Oftobachi bilan bir go'shada yashamoqchi bo'lganiga dalillar keltirgan», – deb yozadi. Yozuvchining o'zi ham aynan shu tarixiy manbaga tayanib, romanda Bobur hayotining oxirgi kunlarini qalamga oladi. Asarda tasvirlanishicha, Tohir oftobachi Boburning so'nggi lahzalarigacha qoshidan jilmaydi va u romanning boshidan oxirigacha ishtirok etadi. Yozuvchi Tohir Oftobachini sadoqatli do'st timsolida tasvir etadi. Dostonda shoir uni Oftobachi sifatida tilga oladi. Demak, tarixiy shaxs obrazi tasvirida shoir tarixiy haqiqatdan chekinmagan. Oftobachining Boburga sadoqat saqlashi, Xondamirning «Vaqoe» («Boburnoma») haqidagi fikrlari, Boburning bobosi Amir Temur va ustozি Alisher Navoiy ruhlari bilan muloqoti, Boburning satranj (shaxmat)ga munosabati, nihoyat, darvish do'stining ona yurtga qaytish uchun Boburdan izn so'rashi kabi badiiy lavhalar tasviri asarning tarixiylik xususiyatini yorqin namoyon etib turadi. Demak, shoir tarixiy voqelikdagi eng muhim nuqtalarga e'tiborni qaratgan.

Dostonning muhim xususiyati, Bobur ruhiyatini teranroq ochish maqsadida uning tarkibiga shoirning bir necha ruboysi keltirilganligida ko'rindi:

«Jismimda isitma kunda mahkum bo'ladur,
Ko'zdin uchadur uyqu chu oqsham bo'ladur.
Har ikkalasi g`amim bila sabrimdek
Borg`on sari bu ortadur ul kam bo'ladur».

Shoir Boburning bemor lahzalarini ishonarli tasvir etish maqsadida uning shu mazmundagi ruboysi aynan asarga olib kirib, dostonning tarixiyligini va real zaminini kuchaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Shu dostonning yana bir o'rnida quyidagi ruboiy keltirilgan:
«Ne xush meni xushlaru ne begona,

Ne g`ayr rizo mendinu ne jonona.

Har nechaki yaxshiliqta qilsam afsun,

Xalq ichra yomonliq bila men afsona» [120].

Dostonda lirik qahramon – Boburning o’z tilidan keltirilayotgan bu ruboiy orqali shoirning ruhiy holati, ichki kechinmalari yorqin ochib berilmoqdaki, ular vositasida kitobxon shoh va shoir Boburni, avvalo, inson sifatida qabul qilib, uning ko’ngil dardlariga sheriklik qiladi. Yana bir muhim jihatni shuki, bu kabi ruboilarning poema badiiy qurilishiga singdirilishi asarning janriy tabiatiga xos bo’lgan liro-dramatik tasvir holatini ta’minalashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, dramatik xarakterdagи asarlar kuchli dramatizmni, konfliktni, o’tkir kolliziyalarni talab etadi. Shundan kelib chiqilsa, asardagi dramatizm shaxslararo muloqotlarda ko’zga tashlanadi. Biroq konflikt, asosan, ichki xarakterga ega. Chunki shoh Bobur va shoir Bobur har lahzada to’qnashib turadi. Uni «ichki ruhiy drama – kechinmalar kolliziyasi» deya baholash ham mumkin [52].

Adabiyotshunos U.Normatov o’rinli ta’kidlaganiday: «Doston barcha janrlar ichida falsafiy mushohadalarga o’ta moyil, donishmandlikni yoqtiradigan, har qancha lirik chekinishlarga, dadil o’y-mushohadalarga, davrning katta gaplarini aytishga, ifodalashga keng imkon beradigan janr». Demak, shoir birgina kecha tasviri jarayonida shoh va shoir qalbining kuchli tebranishlarini ifodalash barobarida hayotiy, falsafiy fikrlarni, tarixiy davrning eng muhim gaplarini aytishga, ifoda etishga erisha olgan. Roman va qissada poemadan farqli ravishda epik tasvirga va xronologiyaga keng o’rin berilgan. Poemada lirizm va dramatizm uyg`unlashib ketgan. Shuning uchun bo’lsa kerak, asar mutolaasi davomida kitobxon lirik obraz tuyg`ulariga oshno tutinadi, besh asr ortga qaytganday bo’ladi, o’zini Bobur bilan yonma-yon turganday his qiladi.

Asardagi darvish, savdogar bilan qilingan suhbatlar tarixiy mazmunga ega. Chunki ular bilan muloqot jarayonida asosiy tarixiy voqelik chizgilari beriladi. Ana shu jihatni bilan uni tarixiy mavzudagi dramatik doston deyish mumkin.

Xurshid Davron “Vatan hakida etti rivoyat” Bobur hayotining so’nggi yillari tasviriga bag`ishlangan to’rtinchi rivoyatda xasta shoirning bir kaft tuproqqa qarab fol ochadigan bengallik chol tufayli tuzalishi va taxtga qaytishi voqealari tasvir etilgan. Bunda bir paytlar Samarqand yoqdan kelgan karvondan olingan «etti dona qip-qizil lola chekilgan piyola» badiiy detal vazifasini o’taydi. Uni ko’rib, Boburning tuzalishi tasviri vositasida ulug` shoirning Vatanga bo’lgan cheksiz mehri va sadoqati namoyon etiladi.

I.4. T.NIZOMNING “UCH SO’Z” DOSTONIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIYY TO’QIMA MUNOSABATI

To’lan Nizomning Boburga bag`ishlangan «Uch so’z» dostoni tarixiy voqelik asosiga qurilgan. Shoir tarixiy haqiqatni badiiy to’qima bilan uyg`unlashtirishga intilgan. U shoh va shoir Bobur hayotining eng muhim nuqtalariga e’tibor qaratgan. Asarga Boburning “Tamomi umrida Boburg`a uch so’z aytibdur: Bir so’kinchu, biri qattiqu, biri yolg`on” baytini epigraf qilib keltiradi. Doston uch bobdan tarkib topgan.

Asar Boburning dunyoga kelishi voqeasi bilan boshlanadi. Unda izchil xronologiyaga tayanilgan. Boburning tavalludi ko’pchilikka xursandchilik olib keladi:

Shodlikka ko’mildi Qo’shtegirmon xo’p,

Uyma uy yugurdi momo kampirlar.

Choldevol yo’lida bolalar to’p to’p,

Tomlarda kaptarlar o’ynar, shotirlar.

E’tibor berilsa, bunda milliy manzara aks etgan. Chunki farzandning dunyoga kelishi har bir o’zbek xonadoniga xursandchilik shodlik olib keladi. Shu tarzda shoir go’dakning tug`ilishi, unga “Zahiriddin” deya ism qo’yilishi, kelajagiga katta umid bog`lanishi bilan aloqador voqelarni badiiy ifodalab beradi. Biroq shu o’rinda shoir jo’nlikka va bir qadar sun’iylikka ham yo’l qo’yadi:

Shomda etib keldi Umarshayx Mirzo,

Bolani qo’liga oldi shodumon.

Go’zal Nigoriga der shirin sazo:

“Qutulib oldingmi, onasi, omon ”.

Ayniqsa, so’nggi misrada sun’iylik nihoyatda sezilgan. Shohlar u zamonda o’z rafiasiga bunday holatda murojaat qilmagan.

Dostonning birinchi bobida Boburning o’sib ulg`ayishi jarayoni qalamga olingan. Ayniqsa, uning yoshlikdagi do’sti, biroq umri erta xazon bo’lgan Sardor ismli yigit bilan bog`liq lavhalar ta’sirchan va jonli chiqqan. Shu bobdagi Umarshayx Mirzoning o’limi lahzalari bilan bog`liq tasvir tarixiy haqiqatga mos keladi. Yana Boburning 12 yoshda taxtga chiqishi voqealarida ham shoir tarix haqiqatidan chekinmagan. Shu tarzda Boburning ulug` saltanat tuzish yo’lidagi harakatlari qalamga olinadi. Tarix sahifalaridan ma’lumki, Temuriylarning o’zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499 yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o’lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko’p o’tmay,katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako’lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxon ga jangsiz topshiradi (1500). Biroq, shahar aholisi va zodagonlarining ma’lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdoi edi. Ular Farg`ona hokimi Boburga maktub yo’llab, Samarqandni ishg`ol qilishga da’vat etganlar. Bobur 1500 yil kech kuzida o’z qo’shini (240 kishi) bilan Samarqandga etib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar ximoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G`uzor shaharlarida Bobur hokimligi e’tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to’plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501 yil aprelda Zarafshon bo’yidagi Saripul qishlog`i yaqinida bo’lgan jangda Bobur qo’shirlari engiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to’rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur

1501-yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo'l oladi. Bobur Temuriylar sultanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsada, ammo mamlakatda hukm surgan og`ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503 yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504 yillarda Bobur Farg`ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to'xtovsiz janglari va og`ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo'llamadi va u Mavarounnahrni tark etishga (1504 yil iyun) majbur bo'ladi. Asarda shu voqeliklarga ham qisman daxl qilingan.

Dostonning ikkinchi bobi Boburning Hindistonlagi hayoti bilan bog`liq voqealar tasviriga bag`ishlangan. Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog`lari orqali Afg`onistonga o'tadi va u erdag'i ichki nizolardan foydalaniib G`azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Kobulga, umuman Afg`onistonga Bobur o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi.

Dostonda xalq dostonlariga xos nasr bilan nazm bog`liqligi bir qadar saqlangan. Asardagi nasriy parchalarning deyarli barchasida sajni uchratish mumkin. Binobarin, asarda qoliplash vazifasini bajargan Bubna haqidagi rivoyatning nasriy bayonida shunday sajli ifoda mavjud: «...Dehqon dalaga *chiqqan*, cho'pon qirlarda moliyu qo'yini *boqqan*, suvlar ariqlar labiga yalpizlar *taqqan...*»[208] Bu sajning farqi shundaki, u asar boshlanishida voqelik sodir bo'lgan vaqtini ta'riflash maqsadida keltirilgan. Unda shoirning saj' qo'llashda doston va ertaklar uslubini saqlagani ayonlashadi. Shuningdek, shoir yana saj' usuli vositasida asar qahramonlari – ota bilan qizning ruhiy holatini, ayniqsa, qizning iztirobli kechinmalarini ochib berishda ham mahorat bilan foydalana

olgan: «Bubna ko'zlariga yosh *olib*, tuyg`ular selida *qolib*, idrokni yo'lga *solib*, otasining huzuriga ohista kirdi... Jalolxon go'yo qiz qalbiga qulqoq *ko'chirdi*, ko'zlarida chaqnagan hayrat o'tini *o'chirdi*»[211]. Parchadagi *olib*, *qolib*, *solib*; *ko'chirdi*, *o'chirdi* kabi so'zlar ichki ohangdorlik kasb etib, sajni vujudga keltirgan.

Dostonning uchinchi bobি Bobur hayotining so'nggi yillari haqida so'zlaydi. Unda Ibrohim Lo'diy bilan bog`liq tarixiy voqealar, uning onasi malika Baydaning Boburga zahar berishi, Boburning sultanatni o'g`li Humoyunga topshirishi, Humoyunning betob bo'lishi voqealari qalamga olinadi.

Umuman olganda, Bobur haqidagi mazkur asar liro epik xarakteri, xalq dostonlari uslubining qo'llanilishi, Bobur hayotining eng muhim nuqtalari aks ettirilganligi nuqtai nazardan zamonaviy o'zbek dostonchiligida o'ziga xos mavqe egallaydi.

II BOB. BOBURGA BAG`ISHLANGAN DOSTONLAR BADIYATI

II.1 DOSTONLAR SYUJETI VA KOMPOZITSIYASIGA XOS XUSUSIYATLAR

Boburga bag`ishlangan dostonlar o'ziga xos kompozistiyaga ega. XX asr o'zbek dostonlari badiiy qurilishining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, ularda voqelik ko'pincha sidirg`asiga she'riy shaklda ifoda etilmay, *muayyan bo'laklarga, tarkibiy qismlarga bo'lib berilishi* ko'zga tashlanadi. Ularda qismlar an'anaviy dostonchilikdan farqli ravishda holat, manzara, qo'shiq, ko'rinish tarzida nomlanishi urf bo'lib bormoqda. Yuqorida tahlil etganimiz I.To'lakovning «So'nggi kecha»dostoni beshta manzaradan tashkil topgan. Har bir manzara o'ziga xos yaxlitlikka va mazmunga ega.

Shu bilan birga asarda lirik qahramon kechinmalarini jonli va ta'sirchan ifodalash maqsadida *mumtoz shoirlarning turli lirik janrdagi she'r larini: ruboiy, g`azal, badiiy parchalarni doston badiiy strukturasiga aynan olib kirish xususiyati kuzatiladi*. «So'nggi kecha»dostonida Boburning bir necha ruboiysi keltirilgan:

Jismimda isitma kunda mahkum bo'ladur,

Ko'zdin uchadur uyqu chu oqsham bo'ladur.

Har ikkalasi g`amim bila sabrimdek

Borg`on sari bu ortadur ul kam bo'ladur»[119].

Shoir Boburning bemor lahzalarini ishonarli tasvir etish maqsadida uning shu mazmundagi ruboiysini aynan asarga olib kirib, dostonning tarixiyligini va real zaminini kuchaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Shu dostonning yana bir o'mnida quyidagi ruboiy keltirilgan:

«Ne xush meni xushlaru ne begona,

Ne g`ayr rizo mendinu ne jonona.

Har nechaki yaxshiliqta qilsam afsun,

Xalq ichra yomonliq bila men afsona»[120].

Dostonda lirik qahramon – Boburning o'z tilidan keltirilayotgan bu ruboiy orqali shoirning ruhiy holati, ichki kechinmalari yorqin ochib berilmoqdaki, ular vositasida kitobxon shoh va shoir Boburni, avvalo, inson sifatida qabul qilib, uning ko'ngil dardlariga sheriklik qiladi. Yana bir muhim jihatni shuki, bu kabi ruboiylarning doston badiiy qurilishiga singdirilishi asarning janriy tabiatiga xos bo'lgan liro-dramatik tasvir holatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur ” asari kompozistiyasi esa an'anaviy zamonaviy dostonlardan farqlanib turadi. Ya'ni bu asarning bunyodga kelishiga turtki bo'lgan narsa uzoq yillardan buyon shoirni hayratga solib kelgan Bobur mirzoning hayoti bo'lsa, ikkinchi tomondan “Boburnoma” qatida yashiringan purma'no mazmundir. Shuning uchun shoir dastlab shu asardan rarcha keltiradi va unga o'zi lirik munosabat bildiradi. Asar voqeabandlikka asoslanmagan. Shoir lirik munosabatlaridan Bobur lirki obrazi bo'y ko'rsatib turadi.

«Monolog» yunoncha so'z bo'lib, so'z, nutq degan ma'nolarni bildiradi. Sahna yoki boshqa adabiy asar ishtirokchilarining o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan, javob talab qilmaydigan nutqi»dir [200,614]. Rus va o'zbek adabiyotshunosligida monologning ikki xil ko'rinishi: personajning o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan ichki nutqi mavjudligi ta'kidlangan [85,204, 78, 87].

Davr lirik dostonlarini shu jihatdan kuzatadigan bo'lsak, ularda monolog ko'rinishlari sof holda va bir-biri bilan uyg'un holda namoyon bo'lgan. Asqr Mahkamning "Tavajjuh" dostoni esa monologlardan tuzilgan. Bu monologlar maktublarda o'z ifodasini topgan.

II. 2. DOSTONLARNING BADIY TILI

Asarda qo'llangan turli xil badiiy san'atlar uning ta'sirchanligini oshirib, o'qishli bo'lishini yana-da ko'proq ta'min etadi, yozuvchi mahoratini namoyon qiladi. Xuddi shunday o'rirlarni bir-bir ko'rib chiqamiz.

Kirish qismida berilgan "Avlod va ajdod" she'rida bir qancha badiiy san'atlar, jumladan, tazod, tashxis, talmeh kabilardan unumli foydalanilgan.

Qodir Ollohdandir har xor-u har xas,

Kim boqiy, kim esa abas yaralgan.

Eng yuksak onlarda odamzod emas,

Go'yo yangi Samo ham Arz yaralgan.

Bunda "Samo ham Arz" so'zlari "osmon va yer" ma'nosini ifodalab, bir – biriga qarama-qarshi qo'yilgan va tazod san'atidan foydalanilgan.

Yana shunday tazodga misol keltiramiz:

Lak-lak insonlarning uyidir ochun,

Yuz mardga goh yuz ming nomard yaralgan.

Dunyoda abadiy qondoshlik uchun

Ulug' kunlarda bir Yofas yaralgan.

Misralarda tazod hamda talmehning namunalarini ko'ramiz. "Mard" hamda "nomard" so'zlari tazodni keltirib chiqarsa, tarixiy shaxs Yofasning nomi keltirilishi talmehni yuzaga keltirgan.

Bir ko'ngil daf' atan sinsa mabodo

Butun olamga ham zo'r dars yaralgan.

Bir ko'ngilning sinishi butun olamning dars ketishi sabab bo'l shining ifodasi tazod san'atining go'zal namunasini yaratgan.

Temurxon naslidin Sulton Ulug'bek

Navoiydan o'lmas so'z – sas yaralgay.

Bormi shon-u shavkat, dovrug buningdek?

Qiyomatga qadar shul bahs yaralgay.

Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy nomlarini keltirib talmeh san'ati yuzaga chiqarilgan.

Asosiy qismda keltirilgan she'rlarda ham bir qancha badiiy san'atlardan mohirona foydalanilganligini kuzatamiz.

Necha bir hukmdorlardan,

Amirlardan, xoqonlardan,

Davlatlar-u davronlardan

Na nom qoldi, na bir noma.

"Hukmdor", "amir", "xoqon" so'zlari ketma-ket qo'llanilib, ta'did san'atini yuzaga keltirgan.

Har bir bandda Boburning eng mashhur asari bo'lmish "Boburnoma"ga ta'rif berilib, bandning oxirida unga ikkinchi nom ham berib ketilgan. Bu esa tashbehta asoslangandir. Ular quyidagilardir: "Taqdirnoma", "Jabrnama", "Harbiynoma", "Kabir noma", "Botirnoma", "Xotirnoma" va "Sabrnoma" kabilardir.

Asosiy xulosa esa:

Turkiylarning "Shohnoma"si – "Boburnoma".

Ko'ngilni oynaga, nozik shishaga va boshqa shu kabi narsalarga o'xshatilishini ko'p uchratamiz. Lekin uni polaponga o'xshatish noan'anaviy holatdir. Bunda uning nozikligi bilan birga yosh ekanligiga ham urg'u berilgan:

Hali otasi ham jardan uchmagan,

Ko'ngil polaponin hijron quchmagan.

Boburning o'n ikki yoshligi tasvirida bu holat ifodalangan bo'lib, uning yosh qalbi hijron azobini tortmaganligi tasviri berilgan.

Umr tulpor esa – yollardir yillar,
Bundan so'ng kechgaydir yollarda yillar.
Azal hukmdori ne qilmish – haqdir,
Toj-u taxt tayyorlab turmishdir taqdir.
Belda ko'r kam qilich, o'zi ozoda,
O'n ikki yoshli bir temuriyzoda.

Bunda "umr"ni "tulpor"ga, umrning yillarini esa tulporning "yollar"iga o'xshatib tashbehning go'zal namunasi yaratilgan. Nega umr aynan tulporga o'xshatilyapti? Tulporning tez yugurishi holati umrga ko'chirilib, umr ham tez o'tib ketishiga ishora qilingan va tulporning doimo hamrohi bo'lgan yollar uning uchqur bo'lishini , tez yugurishini ta'minlaganidek, umrning ham tez o'tishi yillar bilqn bog'liqdir. Endi yillar yollar kabi bo'ladi.

Boshqa o'rnlarda ham bir qancha badiiy san'atlarni uchratamiz.
Ko'yingda onchalar dahr ichra qilmishdir bu dil zori,
Ki yaxlit lolarang o'lmish xarobot birla kulzori.
Alamlar tarqalib butkul tigan mish ranj-u ozori,
Yuzing, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,
Qading, ey gul, hayotim bog'inining sarvi ravanidur.

Avvalo, ko'zga tashlanib turgan qiyoslash yorning yuzi hamda qaddiga aloqadordir. Ya'ni yorning yuzi "jon gulshanining toza gulzori"ga , yorning qaddi esa "hayot bog'inining sarvi ravoni"ga qiyoslanyapti. "Ey sarv ", "ey gul" ifodalari esa istiora san'atini yuzaga keltirgan.

Yor tasviriga bag'ishlangan o'rnlar ko'p bo'lib, ularda badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgan:

Nigorning chehrasi goh ishq naqlidin erur gulgum,
Gahi xusn-u latofat, gohi aqlidin erur gulgum
Bukun bog'im mening yor naxlidin erur gulgum,
Gahe sahro uzori lola shaklidin erur gulgum,

Gahe sahni chaman gul chehrasidin arg'uvoniyydur.

Bunda tanosub san'ati “nigor” va “ishq”; “bog”, “naxl” – “nihol”, “lola”, “chaman”, “gul” kabi so’zlarda yuzaga kelgan.

“Bukun bog’im mening yor naxlidin erur gulgun” misrasida husni ta'lil san'atidan foydalanilgan. Ya’ni oshiqning bog’i bugun yashnab ketdi. Buni chiroyli dalillash sifatida yorning u yerga qadam qo’yanligi chiroyli tasvirlangan, uning qaddi-qomati naxl, ya’ni niholga o’xshatilib, bog’da yangi niholning paydo bo’lishi u yerni yashnatib yuborganligi keltirilgan. Yana-da kengroq ma’noda aytadigan bo’lsak, yorning kelishi oshiqning hayotini gullarga burkadi. Xuddi shu misrada tashbehdan ham unumli foydalanilgan.

Keying misrada esa bu ifoda yana-da kuchaytirilib endi bu holat, ya’ni yorning kelishi sahro yuzining lola shaklidan yashnab ketgani mubolag’a san’ati orqali ifodalangan.

Asarning “ho, darvesho” deb nomlangan qismidan keltirilgan quyidagi parchada shakl bilan bog’liq bo’lgan san’atlardan biri – takrirdan foydalanilgan:

Ho darvesho, ho darvesh,

Umr bir bo’yro darvesh.

U ham to’zg’ib ketgaydir,

Qolar bir sahro, darvesh.

Ho darvesho, ho darvesh.

Bunda “ho darvesho” birikmasi takrir san’atiga asos bo’lib xizmat qilgan.

“Andijon ko’rinadir...” deb nomlangan qismdagi she’rda ham bir qancha she’riy san’atlar yaqqol ko’zga tashlanadi:

Andijon ko’rinadir,

payvandi jon ko’rinadir.

Osmoni yerda

yeri osmon ko’rinadir.

“osmoni yerda, yeri osmon” ifodasida tardi’ aks san’atidan foydalanganki, bu so’zning, fikrning yana-da ta’sirliroq chiqishini ta’minlagan.

Ot chopib yurganlarim

yodimga tushsa har zamon,

Qirlarida lolalar

bag'rimda qon ko'rindir.

Yoshlik damlarini esga olganida qirlardagi lolalarning qizilligi uning bag'riga ko'chib uni qon qiladi. Bunda qirlardagi lolalar yurak-bag'ri ezilgan ko'ngli yarim lirik qahramonning bag'riga o'xshatilyapti, ya'ni tashbeh qo'llanyapti.

Bir xazon yaprog'idek

men bu diyordan ketmisham,

Ko'zima ikki jahon

bargixazon ko'rindir.

Bu o'rinda "xazon yaprog'i" va "bargi xazon" bir ifodaning ikki xil ko'rinishi bo'lib, u asos qilib olingan holda lirik qahramonning o'z "diyor"i va "ikki jahon" bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va natijada tazod yuzaga kelgan.

"Temur tuzuklari" qismidan:

Bobomdan qolgan, ey so'zlar, ayo so'zlar,

Menga darmon-u quvvat ham davo so'zlar.

Ijodkor misralarda so'z o'yinini qo'llaydi. Buni badiiy san'atlar orqali aniqlasa bo'ladi. Jumladan, birinchi misrada "so'zlar" so'zi ikki marta, ikkinchi misrada esa bir marta qo'llangan bo'lib buni bir ko'rishda takrir san'ati deb olishimiz mumkin. Lekin ifodadagi ma'noning yana bir tomoniga qaraydigan bo'lsak, bunda birinchi misradagi "so'zlar" bilan ikkinchi misradagi "so'zlar" tajnisni keltirib chiqaradi, ya'ni birinchi misrada "so'z, jumla" ma'nosida, ikkinchi misrada esa "so'zlamoq" ma'nosida qo'llangan. Bu ham ijodkorning mahoratidan dalolat beradi.

"Bu mirzolar" nomli qismda berilgan she'r boshdan oyoq anafora san'ati asosida yozilgan:

Bu mirzolar razilliksiz, riyosiz sayray olmaslar,

Bu mirzolar fasod-u aysh-u maysiz yayray olmaslar.

Bu mirzolar tilini g'iybat-u fisq birla qayrabmish,

Bu mirzolar qilichni lek qilichga qayray olmaslar.

Bu mirzolarning ortida yana mirzolari border,

Bu mirzolarga yurt bermangki, hargiz asray olmaslar.

“Temurbek solg’on imoratlar...” qismidan:

Temurxon din hikoyat aylagaylar bu imoratlar,

Zamonlardin rivoyat aylagaylar bu imoratlar.

Bu baytda tarse san’atidan foydalanilgan, ya’ni “Temurxon din hikoyat” hamda “Zamonlardin rivoyat” jumlalari o’zaro qofiyalanishi, bir xil miqdordagi bo’g’indan tashkil topganligiva mazmunan yaqinligi bilan tarseni yuzaga chiqargan. “Aylagaylar bu imoratlar” jumlesi esa g’azalning matla’sida kelganligi uchun ikkala misrada ham aynan takrorlanib kelgan va u g’azalning radifi hisoblanadi.

Tamomi yetti iqlimni sharaf ovozasi kezgay,

Muqim holda sayohat aylagaylar bu imoratlar.

Bu o’rinda ijodkor husni ta’lil san’atidan mahorat bilan foydalangan. Shu bilan birgalikda “muqim” hamda “sayohat aylamoq” o’zaro zid ma’noda qo’llanilib tazodning go’zal namunasini ham yuzaga keltirgan.

Tamaddun poytaxti, or-u nomusning qarorgohi,

Jahon birlan raqobat aylagaylar bu imoratlar.

Imoratlar “tamaddun poytaxti, or-u nomusning qarorgohi” deb ta’riflangan va shu orqali sifatlash san’ati qo’llanilgan.

Tizilmishlar qator go’yoki tarix joynamozida

Sado etmay, ibodat aylagaylar bu imoratlar.

Misralarda boshdan-oyoq tashxis san’atidan foydalanilgan. Imoratlarning tarix joynamozida tizilishi va sado etmay ibodat qilishi tasviri tashxisni keltirib chiqarsa, tarixning joynamoz kabi muqaddas deb ifodalanishi tashbehni keltirib chiqargan.

Bu tashbehning davomi, aniqrog’i, uning isboti sifatida berilgan quyidagi satrlar bu o’xshatishning ne chog’liq o’rinli ekanligini ko’rsatib beradi:

Tavof etsang agar dildan – diling ko’kka etar ma’vo,

Diling sohib diyonat aylagaylar bu imoratlar.

Keyingi qism Ulug'bek mirzoga bag'ishlangan bo'lib uning olimlik faoliyatining tavsifi asosiy o'rinda turadi.

Temurxon gar Samarqanddin Zamin mulkini zabit etdi,

Samo mulkini olgan ham Samarqand o'g'lonidir.

Bu yerda "Zamin mulki" hamda "Samo mulki" tazodni keltirib chiqaradi.

Azaldan barcha oshiq ahliga nondir agarchi oy,

Bu yulduzlar zakovat qushlarining mangu donidir.

Bunday chiroyli ifoda husni ta'lil san'atining natijasidir. Ikkala misrada ham husni ta'lil qo'llangan bo'lib, biri ikkinchisining davomi sifatida ifodalangan. "Zakovat qushlari" deb olimlar nazarda tutilgan bo'lib, bu yerda faqat o'xshatilayotgan narsa qo'llanganligidan istiora san'ati kelib chiqadi.

Rasadxona emas, koshonasi ilm-u tafakkurning,

Turar toki turar dunyo – xazoyin-ul maoniyidir.

Bu baytda esa ru'ju san'ati qo'llangan. Uni dastlab "rasadxona" deb atab, keyin bu ta'rif unga kam ekanligi uchun u "ilm-u tafakkurning koshonasi" deya ta'riflanadi. Bir fikrdan qaytib, undan-da mukammalroq fikrni ifodalash esa ru'ju san'atini keltirib chiqaradi.

"Ne xush bo'lg'ayki..." deb nomlangan qismdagi muxammasdan:

Ne kun bo'lg'ayki, dilni dilbarim qoshida o'ynotsam,

Sochini uyqusida yuz-u ko'zi uzra to'zg'otsam.

Lab-u til birla ul ikki qaro zulfini qo'zg'otsam,

Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyqqliq baxtimni uyg'otsam,

Kechalar tori mo'yidek belig'a chirmashib yotsam.

Muxammasning bu bandida ijodkor tanosub, tashbeh hamda mubolag'a san'atlaridan foydalangan. Tanosubni keltirib chiqargan so'zlar quyidagilardir: "soch", "yuz", "ko'z", "lab", "til", "zulf", "bel". Bular yorning go'zalligini yana-da oshiruvchi, unga ko'rakam chiroy baxsh etuvchi, oshiqni o'ziga shaydo qiluvchi a'zolardir.

Tanosubning qayta-qayta qo'llanilishi ikkinchi bandda ham davom etib, u yana ham jozibadorlik kasb etgan:

Gahida egilib mijgonlari uzra nafas olsam,

Gahi bo'ynidagi pinhona xoliga nazar solsam,

Gahi qosh-u qabog'i-yu gahida og'ziga boqsam,

Gahi guldek yuzini ul shakar so'zlukni islasam,

Gahi shakkar kabi ul yuzi gulning la'lidan totsam.

“Mijgon”, “bo'yin”, “xol”, “qosh”, “qabog”, “og'iz”, “yuz”, “la'l” kabilar birlashib tanosubni hosil qilgan.

Qani roz ahlikim, rozi dilimdin roz o'rgansa,

Jarang ko'nglumni toridin surud-u soz o'rgansa,

Sukutimdin, qani she'r ahliki, ovoz o'rgansa,

Qani Shirin bila Layliki, sendin noz o'rgansa,

Qani Farhod-u Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam.

Birinchi misrada “roz” so'zi takrorlanib takrir san'atini, to'rtinchi va beshinchi misralardagi “Shirin”, “Layli”, “Farhod”, “Majnun” lar, ishq ahllarining nomi keltirilib talmeh san'atini vujudga keltirgan.

Kishidin ko'rmadim yo yordin ko'rgummi odamlig’?

Yuragim lola yanglig' qonlig'-u ranglig', ko'zim namlig',

Bu olamda biror on men ko'rmadim xotiri jamlig',

Ko'zim ravshanlig'ida bo'lg'ay, ey Bobur, base kamlig',

Agar qoshi bila ko'zin hilol-u kunga o'xshatsam.

Birinchi misrada lirik qahramon “Kishidin ko'rmadim yo yordin ko'rgummi odamlig’?” deya savol qo'yadi, lekin buning javobini aytish mushkul. Bunday ifoda esa tajohuli orif san'atini keltirib chiqaradi. Odatda yorning qoshi va ko'zini hilol va kunga o'xshatishadi. Shoir esa oxirgi ikki misrada mubolag'a san'atidan foydalanib, yorning qoshi va ko'zini hilol va kunga o'xshatsa bu uning ko'zining ravshan ko'ra olmasligidan nishonadir. Chunki yorning qoshi va ko'zining oldida hilol-u kun hech narsa bo'lib qoladi.

Asarning “Tun” deb nomlangan qismidagi g’azalda esa shunday takrorlar borki, bu takrirning eng go’zal ko’rinishi sifatida namoyon bo’ladi:

Sahromi bu, tog’-u toshmi yo biyobon?

Tun bepoyon. Tun bepoyon. Tun bepoyon.

Na bir manzil ayondur, na davr-u zamon,

Tun bepoyon. Tun bepoyon. Tun bepoyon.

Tole’yimga zamon yopdi qora chopon,

Tun bepoyon. Tun bepoyon. Tun bepoyon.

Bir xil chakmon kiyib olmish yer-u osmon,

Tun bepoyon. Tun bepoyon. Tun bepoyon.

Misralar oxirida “Tun bepoyon” deb takrorlanib bu har bir misra oxirida, jami to’qqiz misraning sakkiz misrasida bir xil holda takrorlangan. Bu esa g’azalga o’zgacha bir mukammallikni baxsh etgan.

Keying qismlardan birida berilgan ushbu she’r ta’did san’atidan unumli foydalanilganligi bilan ajralib turadi:

Beklar, begoyimlar, mirzo, miraklar,

Og’alar, inilar, tog’a, amaklar –

Odam avlodini obdon o’tkardim,

Buncha ham ko’p ekan haromnamaklar.

Dastlabki ikki misrada sanab o’tilganlar ta’did san’ati asosini hosil qilgan.

Qalbi dovot bo’lgan-u qoni siyoh,

Goh siyohday qora baxti Boburiy.

“Xatti Boburiy” ga bag’ishlangan qismdan olingan bu baytda ijodkor “Xatti Boburiy”ning yozilish tarixidan so’zlab, uning qalbini dovotga, qalbining qonini siyohga o’xshatib tashbeh san’atidan foydalanilgan.

«Tavajjuh»dostonining «Bobur tazarrusi» qismida ham ritorik murojaat mavjud:

Yo, Rabbiy, tog`larning qorlari kuysin,

buloqlar charaqlab oqsinlar quyi.

Kushxona poyida yashagan itdek

Boburing bu olam haqqidan to`ydi...

Yo, Rabbiy, to`rt yuz qirq to`rt so`ngagim

harblarda singuncha senga sig`insin!

E'tibor berilsa, «Yo, rabbiy» so'zi dastlab band osha, keyin esa misralar osha takrorlangan. Lirik qahramonning munojoti yanglig` yangragan bu satrlarda anafora Boburning Ollohga e'tiqodini va uning ichki dunyosida – qalbida tug`yon urgan hislarni ifoda etishga xizmat qilgan.

«Tavajjuh»dostoni tarkibidagi «Mirzo Boburning Vatan haqida o'ylari» qismida betakror va uzun anaforalar mavjud:

Vatan – xotirasi jizg`inak tana,

Vatan – tili kesib tashlangan oqin.

Vatan – go'rlar uzra avaxtaxona,

Vatan – ajdodi haq, avlodi xoin.

Vatan – Bahovaddin boshida buloq,

Vatan – Najmiddindan keyin o'lgan it...[270]

E'tibor berilsa, «Vatan» so'zi har bir misra boshida takrorlanmoqda. Bu mazkur qismda yirik-yirik bandlar tarzida davom etgan. Aslida bu faqat Boburning Vatan haqidagi fikrlari emas, balki zamondoshlarimizning ham mulohazalari, Vatanni qanday tushunishlari va anglashlaridir. Shoir, Sh.Hasanov ta'kidlaganiday, sho'ro tuzumining noboplifiklarini «hikoya qilib bermaydi. Uning Vatanga bo'lgan munosabatidan shu voqeа-hodisalar anglashiladi»[177]. Ayni choqda mazkur takror sintaktik jihatdan har bir satrda ega vazifasini bajarib kelmoqda. Badiiy parchada ishlatilgan tirelar esa ega va ot kesim munosabatini ifodalash bilan birga anaforani yanada yorqinlashtirib, poetik fikrni kuchliroq ifodalash imkoniyatlarini yuzaga keltirgan.

Shu dostonning boshqa yana bir o'rnida shoir yozadi:

Vatan – ayolini xor qilgan elat,

Vatan – ayolini qul qilgan ulus.

Vatan – ayollarin zo'rlagan davlat,

Vatan – ayollarin siynasida tuz...[270]

Shoir Boburning Vatan haqidagi fikrlari naqadar kengligini ta'kidlash masqadida anaforaning yuqoridagi o'ziga xos ko'rinishidan foydalangan. Ya'ni dastlabki ikki misrada «Vatan ayolini» so'zlari, qolgan ikki misrada esa «Vatan ayollarin» so'zlari aynan takrorlangan. Qolaversa, unda talqin etilgan Vatan tushunchasi umrboqiy mazmunga ega. Ayni choqda mazkur anaforalar adabiyotshunos D.Quronov ta'kidlaganiday, dostonning «kompozistion asosini belgilovchi usul sifatida ham namoyon bo'lgan»[31]. Chunki lirik qahramon Boburning ruhiy-ma'naviy olamida kechayotgan turfa g`alayonlar, orzu-armonlar, dardu o'kinchlar anaforalar orqali yuzaga chiqqan.

Demak, «Vatan» so'zi dostonning bir necha qismlarida anafora qilib keltirilmoqda. Bu bilan dostonning etakchi mavzusi yurt va Vatan taqdiri haqida ekanligini anglash mumkin.

I.To'lakovning «So'nggi kecha» dramatik dostonida ham xalq qo'shiqlariga murojaat qilingan. Asarda darvish obraz muhim o'rinn tutadi. Zero, uning darvish bo'lishi bejiz emas. Chunki o'z vatani – Andijondan ayrilib, o'zga yurtlarda makon tutgan darvish ona Vatan sog`inchi tufayli shu holga tushadi. Dostonda darvish tilidan quyidagi xalq qo'shig`i kuylangan:

Andijonda o't yoqsam,

O'shda tutun, yor-yor,

Bu dunyoda bormikin

Bag`ri butun, yor-yor.

Bu dunyoda bor bo'lsa,

Bag`ri butun, yor-yor,

Qog`ozdan qozon yasay,

Guldan o'tin, yor-yor...[136]

Bu misralar tazmin xarakterida bo'lib, shoir xalq qo'shig`i «Sunbula» va yor-yor ohangini saqlashga intilgan. Mazkur parchani olib kirish orqali u Boburga ishora qiladi. Zero, qo'shiqda Andijonning tilga olinishi bejiz emas. Chunki Andijon – Boburning ona yurti. Shu bois u haqda kuylangan qo'shiq Bobur tuyg`ularini junbushga keltiradi. Shoир asarning lirik ruhini kuchaytirish uchun va Vatandan ayriliq o'tida kuygan darvish ruhiy holatini ta'sirchan ifodalash maqsadida xalq qo'shiqlaridan satrlar keltiradi.

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotining betakror namoyandasи, nozikta'b shoir va shoh sifatida katta mavqega ega. Shu bois uning serqirra faoliyati adabiyot ahlini ham befarq qoldirmadi. Dastlab uning siymosi she'rlarda yuz ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik epik tur janrlari: roman va qissalarda yaratildi.

XX asrning ikkinchi yarmida esa zamonaviy o’zbek dostonlari sahifalari Bobur mavzusi yoritildi. Ta’kidlash kerakki, bu davrda Bobur haqida yozilgan dostonlarning o’ziga xos badiiy tizimi yaratildi. I.To’lakovning “So’nggi kecha”, A.Mahkamning “Tavajjuh”, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur”, T.Nizomning “Uch so’z” singari dostonlari mulohazalarimizni tasdiqlaydi. Buasarlar doston janri xarakteridan kelib chiqib, Boburning lirik siyemosini badiiy gavdalantirishga bag`ishlanganligi bilan e’tiborni tortadi.

I.To’lakovning “So’nggi kecha” dostoni liro epik xarakterga ega. Ya’ni unda Bobur hayotining so’nggi daqiqalari qalamga olingan. Bir kecha tasviri orqali ijodkor shoh va shoир Bobur hayotiga nazar tashlaydi. Dostonning asosini Boburning Vatan sog`imnchi iztiroblari tashkil eatdi. Unda biz vatandan uzoqda uning ishqida bir umr yongan Bobur dunyosiga oshno tutinamiz, uning iztirobli holatlarini dildan his qilamiz. To’lan Nizomning “Uch so’z” dostoni ham liro epik xarakterga ega. Unda shoир tarixiy haqiqat va badiiy to’qimani uyg`unlashtirishga intilgan. Deyarli Boburning 12 yoshda taxtga chiqishidan boshlab hayotining so’ngigacha bo’lgan voqealar badiiyat sintezidan o’tkazilgan. Unla liro epik dostonga xos voqeabandlik xususiyati ustunlik qiladi.

A.Mahkamning “Tavajjuh”, S.Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonlarida lirik xarakter etakchi. “Tavajjuh” Mirzo Bobur maktublaridan tarkib topgan. Bu maktublar monolog ko’rinishida bo’lib, shoh va shoirning ko’ngil iztiroblarini, so’ngsiz kechinmalarini ta’sirli lavhalarda o’z ifodasini topgan. “Yuz oh, Zahiriddin Bobur” esa zamonaviy o’zbek adabiyotida yangicha uslub va ruhdagi doston sifatida alohida mavqe egallaydi. Bu asar Sirojiddin Sayyidning yillar davomida Bobur dahosidan ta’sirlangani, “Boburnoma” qatidagi ma’nolarni topishga intilishi asosida yuzagan kelgan, deyish mumkin. Keltirilgan badiiy parchalar mazmuniga mos bitilgan yoniq satrlar kitobxon ko’z o’ngida Boburni gavdalantiradi, uning kuchli qalb tebranishlari va g`alayonlarini, iztirobli kechinmalarini o’zida aks ettiradi.

Umuman olganda, tahlil etganimiz Bobur haqidagi dostonlari xarakteri, mazmuni va kompozistiyasi jihatida alohida xususiyatlarga ega bo’lsa da, ularda

Bobur obrazini butun murakkabliklari bilan o'zida ifoda etganligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. IJTIMOIY-SIYOSIY ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9.
– Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –440 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –174 б.
3. Каримов И. А. Мустақил Ўзбекистон XXI аср остонасида.–Тошкент: Ўзбекистон, 2011. –440 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили//Халқ сўзи.-2017.-янв. –Б.1

II. ILMIY ADABIYOTLAR

5. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Фан, 1992. –382 б.
6. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. –Тошкент: Фан, 1992. –246 б.
7. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –558б.
8. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. –Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. –304 б.
9. Жирмунский В.М. Байрон и Пушкин. –Ленинград: Наука, 1978. –422 с.
10. Иброҳим С.Н. Рухнинг рангин садолари. Китобда: Маҳкам Асқар. Ҳақ. Сайланма. –Душанбе: Адиб, 1998. –Б. 5-15.
11. Карим Б. Руҳият алифбоси. –Тошкент: Faфур Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2016. –362 б.
12. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –532 б.
13. Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. –Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 238 б.
14. Норматов У. Достон ва замон // Шарқ юлдузи.–Тошкент, 1987.- №10. –Б. 173-180.
15. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. – Тошкент: Фан, 1986. – 174 б.
16. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет поэмасининг тараққиёт жараёни // Адабий турлар ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1992. –Б. 171-292.
17. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. –260 б.
18. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. –328 б.
19. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Тошкент: O'qituvchi, 2005. –270 б.
20. Умуров X. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Шарқ, 2002. –252 б.

21. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 366 б.
22. Фафуров И. Достон устуни // Шарқ юлдузи.– Тошкент, 1982.–№ 8. –Б. 173-179.
23. Фафуров И. Достонда инсон тақдири // Ўзбекистон Адабиёти ва санъати. - 1982.– 19 фев.
24. Ҳасанов Ш. Замонавий достон поэтикаси. –Самарканد, 2001. –142 б.
25. Ҳасанов Ш. Давр ва достон // Шарқ юлдузи.– Тошкент, 2002.- № 4. – Б.148-150.
26. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достонлари поэтикаси: Филол.фанлари д-ри дисс... –Тошкент, 2004. –284 б.

III. BADIY ADABIYOTLAR

27. Маҳкам А. Ҳақ. Сайланма. – Душанбе: Адиб, 1998. –512 б.
28. Мухаммад Юсуф. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 2007. – 286 б.
29. Низом Т. Сайланма. 1-жилд. Баҳорий фасллар. –Тошкент: Шарқ, 2007.– 400 б.
30. Сайид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. –Тошкент: Шарқ, 2005. – 208 б.
31. Сайид С. Таназзул ёки бир бегонанинг изтироблари // Шарқ юлдузи.– Тошкент, 1991.- № 7. –Б. 3- 4.
32. Тўлаков И. Яшил Сабо. –Тошкент: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 166 б.

IV. ENSIKLOPEDIYA VA LUG`ATLAR

33. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –654 б.
34. Сулаймонов Ш., Тўхсанов Қ. Адабиётшунослик луғати. – Бухоро: Бухоро, 2009. –160 б.
35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. Т.2. – Москва: Рус тили, 1981. – 716 б.

36. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –680 б.
37. Қуронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. –398 б.

Mundarija

Bitiruv ishi titul varag'i.....	1
Kafedra ko'chirmalari.....	3
Kirish.....	10
I bob. Boburga bag`ishlangan dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	12
I.1. A.Mahkamning “Tavajjuh” dostonida lirik tasvir.....	12
I.2. S.Sayyidning “Yuz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur ” dostonida Bobur ruhiy dunyosi ifodasi.....	23
I.3. I.To'lakovning “So'nggi kecha” dostonida dramatik tasvir imkoniyatlaridan foydalaniш.....	34
I.4. T.Nizomning “Uch so'z” dostonida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima munosabati.....	37
II bob. Boburga bag`ishlangan dostonlar badiiyati	41
II.1 Dostonlar syujeti va kompozistiyasiga xos xususiyatlar.....	41

II. 2. Dostonlarning badiiy tili.....	43
Xulosa.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar.....	57